

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA TA'LIM VAZIRLIGI  
BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI**

**JISMONIY MADANIYAT FAKULTETI**

*Qo'lyozma huquqida*

KADIROV SHOXRUX NE'MATOVICH

**13-14 YOSHLI FUTBOLCHILARNING TEXNIK-TAKTIK  
HARAKATLARINI TARBIYALASH SAMARADORLIGI**

5 A 112001 «Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi

Magistrlik akademik darajasini olish uchun yozilgan dissertasiya

**Ilmiy rahbar:** p.f.n. Ma'murov B.B.

**Rasmiy hakam:** p.f.n. Kadirov R.X.

**BUXORO - 2016**

## MUNDARIJA

Kirish-----	3
<b>I BOB. YOSH FUTBOLCHILARNING O'QUV-MASHG'ULOT METODIKASINING NAZARIY ASOSLARI-----</b>	<b>8</b>
1.1. Futbolchilarning o'yin jarayonida harakatlanish va nazorat xususiyatlari-----	8
1.2. Yosh futbolchilarning texnik-taktik tayyorgarlik tomonlarini o'rganish muammolari-----	28
1.3. Yosh futbolchilar guruhida o'quv - mashg'ulotlarini rejalashtirish xususiyatlari-----	32
I bob bo'yicha xulosa-----	34
<b>II bob. TADQIQOT ISHNING MAQSADI, VAZIFALARI, ILMIY USLUBLARI VA TASHKIL ETILISHI-----</b>	<b>36</b>
2.1. Tadqiqot ishning maqsadi va vazifalari-----	36
2.2. Tadqiqot metodlari-----	36
2.2.1. Ilmiy adabiyotlar tahlili-----	36
2.2.2. Pedagogik kuzatish-----	37
2.2.3. Pedagogik testlash -----	38
2.2.4. Pedagogik tajariba-----	38
2.2.5. Matematik hisoblash -----	40
<b>III bob. YOSH FUTBOLCHILARNING TEXNIK-TAKTIK TAYYORGARLIK FAOLIYATI SAMARADORLIGI-----</b>	<b>41</b>
3.1. Yosh futbolchilarda texnik-taktik harakatlanishlarning strukturaviy tahlili-----	41
3.2. Yosh futbolchilarning musobaqa faoliyatidagi texnik harakatlanishlar nazorati -----	49
3.3. Yosh futbolchilarning xujum faoliyatidagi xarakatlanishlar tahlili-----	54
3.4. Texnik – taktik o'quv - mashg'ulotlar samaradorligining asoslanishi -----	57
III bob mavzusi bo'yicha xulosa-----	62
<b>Umumiyl xulosa-----</b>	<b>63</b>
<b>Amaliy tavsiyalar-----</b>	<b>65</b>
<b>Foydalanilgan adabiyotlar-----</b>	<b>72</b>

## KIRISH

“Ta’limni tarbiyadan, tarbiyani esa ta’limdan ajratib bo’lmaydi – bu sharqona qarash, sharqona hayot falsafasi” – deb ta’kidalanadi I.Kariimovnnng “Yuksak ma’naviyat – engilmas kuch asarida”. “Shuni unutmaslik kerakki, kelajagimiz poydevori bilim dargohlarida yaratiladi, boshqacha aytganda, xalqimizning ertangi kuni qanday bo’lishi farzandlarimizning bugun qanday ta’lim va tarbiya olishiga bog’liq”.

O’zbekistonda barkamol avlodni tarbiyalash, qobliyatli yoshlarni sportga jalg etish, milliy futbolimizni yanada qo’llab quvvatlash va rivojlantirish uchun shart sharoitlar yaratish, yosh futbolchilarni tanlab olish va ularda profissonal maxorat hamda ko’nikmalarni chuqur rivojlantirishni ta’minalash, shuningdek ulardan futbol bo’yicha mamlakat klublari va terma jamoalariga ishonchli zahirani shakllantirish maqsadida O’zbekiston respublikasi Prezidneti va O’zbekiston respublikasi Vazirlar Maxkamasining bir qator farmon va qarorlari qabul qilindi. Bu xujjatlarda yosh futbolchilarning nazariy tayyorgarligi va texnik taktik ko’nikmalarni takomillashtirish, professional fazilatlarni rivojlantirish, shuningdek, zamonaviy futbolni rivojlantirish xalqaro talablariga muvofiq holda yosh futbolchilarni tayyorlash jarayonini ilmiy metodik tavsiyalar asosida tashkil etish vazifalarni belgilanadi [2,3].

Mamlakatiizdagи bir qancha futbol mutaxassislarning fikricha yosh futbolchilarning texnik taktik ko’nikmalarni egallashda ortda qolishlarni, eng avvalo yosh futbolchilarni tayyorlashning dastlabki bosqichlaridayoq yuzaga keladigan muammolar bilan izohlash mumkin.

Futbol o’yinida yuqori malakali futbochilarni tarbiyalash har doim ham dolzarb muammo hisoblangan. Yuqori malakali futbochilarni jismonan etuk, mazkur sportdagi tayyorgarlik darajalarini oshirish orqali yoshlikdan maxsus ixtisoslashgan bolalar va o’smirlar olimpiya zaxiralari sport maktablarida, bolalar va o’smirlar sport maktab internatlarida o’quv mashg’ulotlarini to’g’ri yo’naltirish bilan bog’liqdir.

Amaliyotchi mutaxassis va murabbiylar tomonidan O'zbekiston futbolida yuqori malakali deb hisoblangan ko'pgina o'yinchilarda texnik-taktik harakatlarni ancha past darajada ekanligini takidlashmoqda. Bunga milliy terma jamoamiz safida o'ynovchi futbolchilarining xalqaro uchrashuvlarida texnik-taktik harakatlardagi kamchiliklarning ko'rinish qolishi yaqqol misol bo'la oladi.

O'zbek futbolchilarining keyingi rivojlanish bosqichi to'g'ridan to'g'ri yosh bolalar va o'smirlar futbolini rivojlantirish bilan bog'liq. Qanchalik bolalar va o'smirlarni tayyorlash, o'rgatish jarayoni samarali yo'lga qo'yilsa keyingi futbolimiz rivojlanish bosqichi shunchalik samaraliroq kechadi.

Zamonaviy futbol har bir futbolchidan, to'p bilan to'g'ri muomalada bo'lishni, to'pni o'z jamoadashlariga aniq uzatishni, darvozaga to'g'ri zarba yo'naltirishni xujumda, himoyada va butun o'zin davomida anqlik bilan harakat qilishlarini talab etmoqda, chunki noaniq bir harakat jamoaning uyushtirilgan xujumlarini samarasiz tugallanishiga olib keladi.

Yuqori malakali jamoalarda o'yinchilarning texnik va taktik tayyorgarligidagi nuqsonlarini tuzatish ancha qiyin. Shuning uchun bolalar va o'smirlarning mashq jarayonlari qanchalik samarali bo'lsa, yuksak natijalar uchun kurashlar ham shunchalik ko'p muvaffaqiyaga olib keladi. Hozirgi paytgacha yosh futbolchilarining musobaqa faoliyatiga xos yosh xususiyatlari muammosi deyarli o'rganilmagan. Yosha futbolchilar musobaqa faoliyati tuzilishining yosh dinamikasi xususidagi ilmiy ma'lumotlarning yo'qligi, ayniqsa, to'pni boshqarish texnikasini o'rgatishning dastlabki bosqichida yaqqol ko'zga tashlanadi. Oqibatda, boshlang'ich tayyorgarlik metodikasidagi bir qator masalalar, xususan o'zin maydonida harakatlar texnikasining alohida elementlarini o'rgatish izchilligi to'g'risidagi masala ochiq qolmoqda, bu esa keyinchalik anchagina sezilarli texnik - taktik mahorat darajasini chegaralab qo'yadigan omilga aylanishi mumkin. Aynan shu sababli yosh futbolchilarining texnik tayyorgarligini optimallashtirish uchun yangicha texnologik yondashuv yo'llarini izlash muammosi dolzarb hisoblanadi.

**Tadqiqot ishining maqsadi:** Yosh futbolchilarda texnik-taktik xarakatlarni tarbiyalash asosida faoliyat samaradorligi va o'yin natijalarni oshirish metodikasini o'rganish.

**Tadqiqot vazifalari:** 1. Yosh futbolchilarning texnik va taktik tayyorgarlik tayyorgarligi bo'yicha o'tkazilgan nazariy, amaliy va empirik tadqiqotlar mazmuni va mohiyatini o'rganish;  
2. 13-14 yoshli futbolchilarning texnik-taktik tayyorgarlik maxsus mashqlar va nazorat testlarni ishlab chiqish;  
3. 13-14 yoshli futbolchilarning o'yin jarayonida faoliyat samaradorligini tadqiqiy asoslash.

**Tadqiqot ob'ekti va predmeti.** 13-14 yoshli futbolchilardan iborat boshlang'ich tayyorgarlik guruhining o'quv – mashg'ulot va musobaqa jarayonida texnik-taktik tayyorgarlik samaradorligini o'rganish.

**Tadqiqotning o'r ganilganlik darajasi:** Yosh futbolchilarning texnik-taktik harakatlarni tarbiyalashga doir muammolarni ko'pgina mutaxassislar tomonidan o'r ganilgan. O'r ganilgan, tahlil qilingan ishlarda asosan 10-14 yoshli futbolchilarning texnik-taktik xarakatlarni o'zlashtirish, mustahkamlash mashg'ulotlarda birinchi darajali bo'lib qaralishi ta'kidlangan. 1970-1980 yillarda Chexiya, Vengriya va Germaniyalik mutaxassislar o'z kitoblarida, o'quv qo'llanmalarida, ilmiy ishlarida, yosh futbolchilarning texnik-taktik harakatlarini rivojlantirishni keng doirada yoritib berishgan. Futbolchilar tayyorgarligining asosiy mezoni musobaqa faoliyati , u o'yin natijasi va murabbiyning ekspert bilan bir qatorda, tezkor ish hajmi, shuningdak, texnik-taktik harakatlarning miqdori va aniqligi bilan tavsiflanadi. O'yinchilarning musobaqa faoliyati to'g'risidagi axborot asosida murabbiy jamoa tayyorgarligini joriy rejasiga tegishli o'zgartirishlar kiritadi. Ma'lumki, musobaqa faoliyatini o'r ganish jarayoni har o'yin davomida futbolchilar tomonidan namoyish etiladigan juda ko'p ma'lumotlarni yig'ish imkonini beradi. Lekin yosh futbolchilarda bunday ma'lumotlarni o'r ganish natijalari muofiq adabiyotlarida etarli aks etirilmagan. Ko'pgina futbol mutaxassislari R.A. Akramov, M.A.

Godik, YU.N. Lopachev, G.M. Sergeev, I.A. Koshbaxtiev, A.I. Talipjanovlar o'z ishlarida yosh futbolchining o'yindagi to'p bilan, to'psiz va o'yindagi boshqa xolat xarakatlarini tekshirishgan, ilmiy tadqiqot ishlari olib borishgan [6,15,27,35,50,59].

**Tadqiqot ishining ilmiy yangiligi:** 13-14 yoshli futbolchilarning texnik-taktik tayyorgarlik bosqichlari va davrlari aniqlanib, har bir bosqich uchun ishlab chiqilgan maxsus mashqlar majmuasi va tayyorgarlik metodikasi tadqiqiy asoslangan.

**Tadqiqot ishining ilmiy faraz:** 13-14 yoshli futbolchilarning tayyorgarlik jarayonidagi muayyan bosqichlar va davrlarida qo'llaniladigan maxsus mashqlar metodikasini qo'llash orqali o'yinchilar tomonidan texnik va taktik harakatlarni mukammal o'zlashtirish, maydonning har bir chizig'ida texnik harakatlarni bexato bajarish mahoratlarini hamda musobaqa sharoitida o'zin natijaviyligini oshirish ehtimoli mavjud.

**Tadqiqot metodlari.** Belgilangan vazifalar echimini tadqiq etish uchun quyidagi metodlar qo'llanildi:

1. Ilmiy - adabiy manbalarni tahlil qilish.
2. Pedagogik kuzatish.
3. Pedagogik testlash.
4. Pedagogik tajriba
5. Matematik-statistik usullari.

**Tadqiqot natijalarining nazariy va amaliy ahamiyati.** O'tkazilgan tadqiqot natijalarining nazariy ahamiyati:

1. Yosh futbolchilarning tayyorgarlik jarayoniga xos bosqichlar va mashg'ulot davrlarida texnik - taktik harakatlanishlariga doir maxsus mashqlar majmuasi ishlab chiqildi va nazariy asoslandi.
2. Yosh futbolchilarni musobaqa faoliyatida amalga oshirilgan texnik harakatlarini kuzatish va olinadigan ahamiyatli ma'lumotlarni tahlil qilish metodikasi ishlab chiqildi.

## **Tadqiqotning amaliy ahamiyati**

13-14 yoshli futbolchilarning texnik-taktik tayyorgarlik jarayoni metodikasining samaradorligi tadqiq etildi va amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.

### **Tadqiqot natijalarini sinovdan o'tkazish**

1. Buxoro shahar ixtisoslashgan bolalar va o'smirlar olimpiya zaxiralari sport maktabi (IBO'OZSM) va bolalar va o'smirlar sport maktab internatning futbol bo'yicha boshlang'ich tayyorlov guruhi tarbiyalanuvchilari bilan o'tkazilgan tajribaviy ish xulosalari, BDU jismoniy madaniyat fakulteti kafedralari yig'ilishlarida muhokama qilindi va Respublika ilmiy-uslubiy anjumanlari to'plamlarida chop etildi.
2. Yosh futbolchilar jamoasining tayyorgarlik mashg'ulotlari va musobaqa faoliyatlarini kuzatish va tadqiq etilganligi IBO'OZSM rahbariyati tomonidan dalolatnoma orqali tasdiqlandi.

# **I BOB. YOSH FUTBOLCHILARNING O'QUV-MASHG'ULOT**

## **METODIKASINING NAZARIY ASOSLARI**

### **1.1. Futbolchilarning o'yin jarayonida harakatlanish va nazorat xususiyatlari**

Futboldagi yangi va samarali usullarining paydo bo'lishi futbolchilarning harakatlari yuksak darajada bo'lishini talab etmoqda. Har bir futbolchi bir o'yin davomida jamoasining g'alaba qozonishi uchun ko'pgina harakatlar bajarishadi.

Mutaxassislar futbol o'ynash uchun kamida uchta muhim qobiliyatga ega bo'lishlikni ta'kidlashadi. Ya'ni bu, jismonan rivojlangan, o'yin texnikasini egallagan va maydonda o'zini yaxshi tuta oladigan bo'lishlari kerak [8].

Ko'pgina futbol mutaxassislari R.A. Akramov, M.A. Godik, YU.N. Lopachev, G.M. Sergeev, I.A. Koshbaxtiev, A.I. Talipjanovlar o'z ishlarida futbolchining o'yindagi to'p bilan, to'psiz va o'yindagi boshqa xolat xarakatlarini tekshirishgan, ilmiy tadqiqot ishlari olib borishgan [15,35,27,50,59].

Bizga shu narsalar ma'lumki, futbolchining maydondagi asosiy xarkatlariga: yurish,yugurish, tup bilan yurish, to'p bilan yugurish, sakrashlar, tupga zarba berish, tupni tuxtatish, to'pni yon chiziqdan tashlash, fintlar, podkat tashlash va raqib bilan to'p uchun kurashish xarkatlari kiradi. Bundan ko'rinish turibdiki, futbol mutaxassislari (o'z tadqiqot ishlarida) futbolchilarining yuqorida ta'kidlangan xarkatlarini o'rganishgan va ularni takomillashtirish kerakligini izoxlab o'tishgan. Futbol mutaxasisi YU.M. Arrestov futbolchining maydondagi asosiy xarkati bu yugurishidir deb ta'kidlangan edi [10].

Mazkur tadqiqotlarida futbolchilarning yugurish xarakatlarida, ya'ni futbolchilar o'yindagi to'p bilan yugurishlari, to'psiz yugurishlari, futbolchilar tomonidan 9-12 km bosib o'tishini va bu kursatkich keyinchalik 12-14 km ga etishini e'tirof etgan. Xaqiqatan xam bu ko'rsatkichni o'sishini biz xozirgi futbolimizda ko'rishimiz mumkin. Bo'lib o'tgan jaxon championatlarida ko'pgina futbol mutaxassislari futbolchilarning bir o'yindagi xar qanday xolatdagi yugurishlarini kuzatishgan. Bunda ular futbolchining sekin yugurishi

va tezkor yugurishi, maksimal tez yugurishi va to'p bilan yugurishini o'rghanishgan.

Futbol o'yinida futbolchilarning asosiy xarakatlaridan bir to'p bilan muomalada bo'lishi, ya'ni to'p bilan xarakatlanishlar bo'lib, unda futbolchilar to'pga zarba berish, bosh va oyoq bilan maydondagi aldamchi xarakatlari, raqibi bilan to'p uchun kurashishi, to'pni olib yurish va to'pni to'xtatish xarkatlarini bajarishadi.

N.M. Lyukshinov o'zining tadqiqot ishlarida futbolchining bir o'yindagi to'p bilan xarakatlarini kuzatgan. Uning kuzatishicha futbolchining to'pga zarba berishi 37,6% ni, raqibi bilan to'p bilan uchun kurash va fintlar 20,8%, tupni olib yurish 17,7% ni va to'pni tuxtatishlar 23,9% ni tashkil etishini ko'rsatgan. To'pga zarba berishda 83,4% - oyoqda, 16,6% bosh bilan berilar ekan. SHulardan futbolchilar tomonidan oyoqda beriladigan zarbalarining oyoq tovonining ichki qismi bilan 26,5% oyoq yuzasining yon qisim bilan 30,3% eng ko'p zARBalar berilar ekan [34].

Raqib jamoasining darvozasiga to'p yo'llash, xar bir jamoa futbolchilarining asosiy maqsadidir. Futbolchilar tomonidan darvoza tomon yo'llangan zARBalarining oyoqning qaysi qismida samarali bajarilishini M.S. Brilnning ishlaridan bilib olishimiz mumkin. Bu jadvaldan shuni kurishimiz mumkinki, darvoza tomon to'g'ri, aniq gol bilan tugallangan zARBalar oyoq qobirg'asining o'rta qismi bilan yo'naltirilgan [12].

O'yin davomida futbolchilar tomonidan bajariladigan yana bir xarakatlar – bu sakrashlar va aylanma xarkatlardir. Xavodagi to'p uchun kurashishda ko'pincha futbolchilar bosh bilan, darvozabon esa qo'l bilan sakrab to'pga egalik qilishadi. Aylanma xarakatlarini esa futbolchilar aldamchi xarakatlar, akrobatik xarakatlar, ya'ni o'yin sharoitiga qarab bunday xarkatlarni bajarishadi. Bunday xarakatlar futbolda deyarli xali uncha o'rGANilmagan.

Vengriyalik futbol mutaxassis A. Chanadining e'tiroficha, futbol texnikasining o'z chegaralari bor. U hamma narsani hal qilmaydi, lekin usiz xech bir yutuqqa erishib bo'lmaydi [63].

Texnik usullar, bu futbol o'yini vujudga keltirish natijasi demakdir. Yuksak futbol natijalariga erishish ko'p jixatdan futbolchining an shu xilma xil vositalarni qanchalik to'liq bilishsa, raqib jamoa o'yinchilarni qarshilik ko'rsatayotgan, ko'pincha charchoq ortib borayotgan sharoitda o'yin faoliyatidagi turli holatlarda ularni qanchalik maxorat bilan, samarali qo'llanishga bog'liq.

O'yin taraqqiyotining yuz yildan ortiq tarixi mobaynida futbol texnikasida muayyan o'zgarishlar bo'ldi. Bu taraqqiyotning asosiy yo'nalishlari quyidagilardan iborat: boshning chakka qismi va orqasi bilan zarba berish, to'pni boldir bilan to'xtatish singari an'anaviy bo'lмагan usullarni qo'llash ancha kamayib ketdi.

O'yin jarayonida yangi rivojlangan texnikalar, oyoq yuzi bilan zarba berish, to'pni son va ko'krakda to'xtatishlar, aldash harakatlaridan foydalanish shubhasiz samaradorlikni oshiradi.

Hozirgi futboldagi texnik usullar o'yin harakatlari tezligi va aniqligini oshirish uchun kuchdan etarlicha tejab foydalanish imkonini beradigan, biomexanika nuqtai nazaridan maqbul harakat tizimi bilan xarakterlanadi.

Futbol texnikasini o'zlashtirib olishdagi qiyinchiliklar, aftidan, shu bilan izohlanadiki, bunda to'pni oyoq va bosh bilan o'ynatish zaruriyati, buning ustiga raqib bilan qattiq olishish zarurati tug'iladi.

Mutaxassislarning kuzatishlaricha, futbolchi maksimum o'yin davomida to'p bilan 50 martadan 100 martagacha uchrashishni xisoblab chiqadilar. Ammo bundan qisqa vaqt davomida (o'rtacha 2-3 min) tunga ega bo'lish bilan o'yin vaziyatdagi texnik priyomlarni bajarishni hajmi, turli-tumanligi, samaraligi, tezkorligi katta malakani talab etadi. [10,23,24,31,38,39].

Maydon o'yinchisining to'p egallash texnikasiga quyidagi gruppadagi usullar kiradi: oyoqda beriladigan zARBalar (6 usul), boshda beriladigan zARBalar (2 usul), to'pni oyoqda to'xtatish (6 usul), gavda bilan to'xtatish (2 usul), oyoq bilan qilinadigan fintlar (4 usul), bosh bilan qilinadigan fintlar (3 usul).

O'yin vaqtida qaysi texnik priyom qancha miqtorda ijro etilishi futbolchilarining o'yindagi funkstiyalariga bog'liq. Texnik usullarni ijro etish sifat esa maydon o'yinchilarining xammasida yuksak darajada bo'lishi kerak.

Futbol o'yinlarida asosiy texnik harakat bu to'pga zarba berish va to'pni uzatish texnikasidir. To'pga oyoq, bosh bilan turli usullarda zarba beriladi. To'pga oyoq bilan zarba berish oyoq kaftining ichki tomoni bilan, oyoq uchi bilan, tovon bilan bajariladi.

Oyoq yuzasining o'rta qismi bilan to'pni tepish futbolchilarining darvozaga va uzoq masofaga to'pni zARB bilan eng kuchli zarba berish usulidir. Buni bajarilish texnikasi quyidagicha: mo'ljal va to'pga nisbatan yugurish bir chiziq yo'nalishda bo'ladi. Oyoq va tebranish harakati oyoq oldi, hamda orqa qismi bilan bajariladi. Tayanish tovondan boshlanadi. To'pni va tizza bo'g'imini birlashtiradigan shartli chiziq o'qi tepish vaqtida qat'iy tik xolatida katta bo'lisch zARBini juda aniq va kuchli bajarish imkonini beradi.

Futbol texnikasida aldash harakatlarining quyidagi asosiy priyomlari ko'zga tashlanadi: qocha turib aldash, zarba berib aldash, to'pni tepib aldash. Bu fintlarni va ularning turlarini bajarishning xilma-xil usullari bor.

Aldash harakatlarning texnikasini taxlil qilinganda ikkita umumiy bosqich ajratib ko'rsatiladi. Bulardan biri tayyorlov bosqichi bo'lsa, ikkinchisi asl niyat amalga oshirish bosqichidir. Aldash harakatlarni birinchi bosqichda raqibda qarshilik ko'rsatish uchun javob reakstiyasi qanday bo'lislini belgilab beradi. Ikkinci bosqichda aldash harakatiga javoban raqib reakstiyasidan keyin futbolchining asl niyati amalga oshiriladi.

V.I. Simakov e'troficha o'yindagi vaziyat va taktik mulohazalarga qarab variantlar ko'p bo'lishi asl niyatni amlga oshirish bosqichga xos xususiyatdir. Fintlarni bajarishda to'p bilan qochib qolish, kelayotgan to'pni tepmay sherigiga o'tkazib yuborish hamda shularning birgalikdagi turli variantlari qo'llaniladi [57].

Aldash harakati birinchi bosqichning tezligi qo'llanilayotgan texnik priyomning tayyorlov bosqichini tabiiy qilib bajarish uchun zarur bo'lgan vaqt

bilan belgilaydi. Ikkinchi bosqichni bajarish tezligi esa taktik sharoitga bog'liq bo'lib, odatda maksimumga yaqin bo'ladi.

Qochib qolish fintini bajarish turli usullarda xarakatlaniyotganda bajariladigan oson usuldir. O'yinchi tayyorlov bosqichida muayyan yo'nalashda raqibdan qochib qolmoqchi ekanini ko'rsatmoqchiday harakat qiladi. Raqib ham shu tomonga intilib, buning o'tmoqchi bo'lgan zonasini to'sib chiqmoqchi bo'ladi. O'yinchi asl niyatini amalga oshirish bosqichida tezda harakat yo'naligshini o'zgartirib to'pni qarama-qarshi tomonga olib qochadi. Qochib qoladigan aldash harakatlari ko'pincha oyoqlarini yarim bukib bajariladi.

Ma'lumki, yuqori malakali futbolchining alohida mahorati jismoniy, texnik, nazariy va irodaviy tayyorgarlik kabi asosiy tarkibiy qismlardan iborat bo'ladi, buni esa, o'z navbatida, yosh futbolchilar o'quv-mashq jarayonining samaradorligini oshirishsiz tasavvur etish mumkin emas.

Futbolchilar sport mahoratining asosi texnik tayyorgarlik bo'lib, uning darajasini ko'p jihatdan o'yinning samaradorligi va tomoshabopligi belgilaydi.

Boshqa tomondan, futbol mutaxassislari o'zbek futbolchilarining to'pni boshqarish texnikasi borasida eng kuchli chet el futbolchilaridan muayyan darajada ortda qolayotganliklarini qayd etmoqdalar. YAqin vaqtgacha bu yuqori malakali jamoalarning muammosi edi, endilikda u yosh futbolchilarga ham taalluqli. Ortda qolishning alohida tarkibiy qismlaridan biri sifatida to'pni qabul qilish va uning nazorati bilan bog'liq harakatlarni tezkor faoliyatlarda samarali bajarish qobiliyati ko'rsatiladi.

Uzoq yillar mobaynida davom etib kelayotgan sezilarli ortda qolishning asosiy sabablari nimada?

Birinchi navbatda, bu sport mакtablarida o'rgatish jarayoni va mashg'ulotlarning uncha yuqori bo'limgan darjasи, texnik tayyorgarlik usuliyatidagi xatolar, murabbiylarning ma'lum bir qismida bolalar va o'smirlar bilan ishlashga ijodiy yondashuvning yo'qligi tufaylidir.

O'zbek futbolida ijrochilarning cheklangan imkoniyatlari – zahira tayyorlashda ko'p yillar davomida atletizmning ustuvor bo'lganligi natijasi.

Futbol taraqqiyotining hozirgi bosqichida o'yin shiddati o'sib boryapti, bu o'yinchidan, eng avvalo, kutilmaganda o'zgaradigan vaziyat, chegaralangan vaqt va makon sharoitida texnik-taktik usullarni tez va samarali bajara bilishni talab etadi.

Bugungi kunda muvaffaqiyatlarga erishishni istagan jamoa tez o'ynashi, ya'ni oqilona texnikaga ega bo'lgan va uni tezkor harakatlar bilan uyg'unlashtira oladigan o'yinchilardan iborat bo'lishi lozim. Shunga ko'ra ayrim futbol mutaxassislari "tezkor texnika" degan atamani qo'llaydilar.

Hujum va himoya orasidagi kurashlar o'z zaminida fintlar, dribling va tez hamda aniq yashirin uzatishlar yotadigan o'tkir texnika yordamidagina hujum foydasiga hal bo'lishi mumkin.

Mamlakatimiz va chet el mutaxassislarining fikricha, ommaviy mudofaa chog'ida golli holatlar faqat to'pni oqilona, tez va aniq qabul qilish orqali yuzaga keltiriladi. Bunday sharoitda, odatda, to'pli o'yinchi yoki uning sheriklari ikki-uch raqibni ishonch bilan aylanib o'tish ko'magidagina zarba berish mumkin bo'lgan vaziyatga chиqa oladilar.

Biroq bu, ayniqsa fintlar, aldab o'tishlar bobidagi alohida mahorati g'ayri-oddiy darajada yuksak bo'lgan futbolchilarning qo'lidan kelishi mumkin.

Texnik ko'nikmalar oddiy, tezkor va maqsadga muvofiq bo'lishi kerak. Ilgari juda muhim sanalgan texnik usullar, masalan, to'pni butunlay to'xtatish o'yinda juda kam qo'llanadigan bo'ldi, zero, zamonaviy oqilona o'yinda to'pni to'xtovsiz ravishda harakatga uzatishga o'tib borilyapti. Ikkinchi tomondan, ayrim texnik usullar katta ahamiyatga ega bo'lib qoldi. Jumladan, fintlar, aylanib o'tish, yashirin uzatishlar. Ammo aylanib o'tishni o'yinchilar juda yaxshi o'zlashtirib olganlaridagina u muvaffaqiyat keltirishi mumkin.

Shuning uchun texnik tayyorgarlik ko'p yillik jarayonning mantiqiy bir halqasi hisoblanadi va uning har bir bosqichi o'z muayyan maqsadlari, vazifalariga ega. Axir, dastlabki o'rgatish bosqichida o'yin usullarini o'zlashtirib olishdagi qayd etilgan orqada qolishlar futbolchilarning keyingi tayyorgarligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Texnik tayyorgarlik turli mashg'ulot vositalarining tasodifiy yig'indisi bo'la olmaydi. Muhimi, shunday vositalarni tanlab olish kerakki, ular ko'p yillik tayyorgarlik jarayonining har bir bosqichida o'yin texnikasini muvaffaqiyatli o'zlashtirishga zarur ijobiy ta'sir o'tkazsin.

Yosh futbolchilarning texnik tayyorgarligida tizimli yondashuv tasodifiy hol emas. Uni texnik tayyorgarlikning etilgan muammosini hal etish va muayyan usuliyat yordamida boshqariladigan o'rgatish jarayonini yaratish zarurati taqozo etadi.

Tizimli yondashuv tayyorgarlikning barcha elementlarini yagona dinamik tuzilmaga birlashtirish va hisobga olishni nazarda tutadiki, bunda har bir element u yoki bu texnik usulning dinamikasi va mukammalligi darajasini ajratishga imkon beradigan tizimli sifatga ega.

Ma'lumki, texnik mahorat futbolchi biladigan texnik usullarning hajmi va serqirraligi, shuningdek, ularni o'yin sharoitida samarali qo'llash malakasi bilan tavsiflanadi. Futbol texnikasi to'p bilan muomala qilish uslublari va usullarining katta guruhi yig'indisidan iborat ekan, uni o'rganish murakkab va uzoq jarayonga aylanadi.

Kam vaqt va kam kuch sarflab o'rgatish masalalarini hal etishda o'rganilayotgan materialni tizimlashtirish va texnikaga o'rgatishning oqilona izchillagini aniqlash katta ahamiyatga ega.

Mashg'ulot jarayonini optimallashtirish muammosini echishga imkon beradigan usullardan biri – modellashtirishdir.

Bolalarning o'quv-mashq jarayonida model maqsad va vazifalari umumiy bo'lgan va, albatta, bir-birini to'ldiradigan maqsadli mashqlar guruhidir. Bunday modellar mashg'ulot darsini etarlicha aniq mashqlantirish yo'nalishida qurish imkonini beradi. Mashqlarning aniq izchilligi shug'ullanuvchilar tomonidan ancha engil qabul qilinadi va zarur himoyadagi faoliyatni bajarish uchun yo'l ochadi.

Futbolchilar texnik tayyorgarligini nazorat qilish mashg'ulotlar jarayonining majburiy qismi bo'lib, uni bir necha yo'l bilan o'tkazish mumkin.

Bu yo'llar har bir o'rgatish yili uchun aniq bo'lishi va imkon qadar muvaffaqiyatlarni tavsiflovchi miqdoriy ko'rsatkichlarda ifodalanishi darkor.

Baholashning keng tarqalgan yo'li – texnikani ko'rib baholash. Biroq bu sub'ektiv usul: ko'rib baholashda hozircha yagona mezonlar yo'q va shuning uchun mutaxassislarning o'yinchilar texnik mahorati darajasi to'g'risidagi fikrlari turlicha.

Bevosita o'yinlar vaqtida qayd etilgan ma'lumotlarni eng seraxborot deb hisoblash kerak (bu holatda futbolchining texnikasi emas, ko'proq texnik-taktik mahorati baholanadi). Texnik-taktik mahoratni qayd etishning bunday shakli har bir matchda bajariladigan o'yin harakatlarining hajmi va aniqligi tizimli ravishda qayd etilgan holdagina seraxborot bo'la oladi.

Boshlang'ich o'rgatish bosqichida modeldan dasturiy materialning o'zlashtirilishi darajasini baholashgina emas, balki qaysi material etarlicha o'zlashtirilmaganligini aniqlashda yordam beradigan test sifatida foydalanish mumkin. O'rganilgan usullar va harakatlarning barqarorligi darajasini ko'rish uchun testni (modelni) birmuncha vaqtdan keyin takrorlash mumkin.

Takomillashtirish bosqichida texnika darajasini baholash uchun boshqa ko'rsatkichlardan foydalaniladi:

- 1) texnika hajmi yoki futbolchi o'yinda bajaradigan harakatlar miqdori;
- 2) o'yinda harakatlarning rang-barangligi;
- 3) texnikaning samaradorligi hamda ishonchliligi va, albatta, uning tezkorlikda bajarilishi.

Sportchilarning texnik tayyorgarligini nazorat qilmay turib, o'rgatish jarayonidagi tipik kamchiliklarni aniqlash va alohida xato harakatlar hamda texnik muammolarning oldini olish mumkin emas.

Tayyorgarliklar o'rtasida o'zaro va qayta bog'liqliklar bo'lmasa, turli bosqichlarda sportchilar tayyorgarligi tizimini boshqarish qiyinlashadi. Bu esa, o'z navbatida, terma jamoalarimiz va yuqori malakali klub jamoalarimizning ko'proq qoniqarsiz chiqishlarida, o'yinchilarimizning alohida

texnik mahorat bobida eng yaxshi chet el sportchilaridan ortda qolishlarida o'z aksini topadi.

Mana shuning uchun ham bugungi kunda tayyorgarlikning bu turida mavjud ortda qolishni tezkorlik bilan engib o'tishga imkon beradigan o'yin texnikasini o'rgatishga yangicha yondashuvlarni izlash hamda amaliyatga tatbiq etish masalasi alohida kasb ahamiyat etyapti.

Mamlakatimiz futbolchilarining mahorati darajasini oshirish zahiralar tayyorlash sifatini uzluksiz ravishda yaxshilash bilan chambarchas bog'liq.

Butun o'quv-mashq jarayonini yosh futbolchilar tayyorgarli-gining serqirraligini ta'minlovchi mezonlar bo'yicha dasturlashtirish zarur.

Yosh sportchilarni tayyorlashda o'yin texnikasini o'zlashtirish hamda o'yin sharoitlariga yaqin variativ sharoitlarda texnik usullarning keng "assortiment"ini bajarish ko'nikmalarini takomillashtirish ustidagi ish samaradorligini oshirish ham juda muhim.

Yosh futbolchilar va yuqori malakali jamoalar uchun o'ynaydigan sportchilarning texnik-taktik harakatlari aniqligi ko'rsatkichlarini taqqoslaganda, salbiy izchillik ko'zga tashlanadi: bolalik yoshida ko'p xatolar bilan bajarilgan usullar sportdagagi etuklik davrida ham shunday nuqsonlar bilan bajariladi.

Texnik-taktik tayyorgarlikning uncha yuqori bo'limgan dara-jasini bolalik va o'smirlik davridagi o'quv-mashg'ulot jarayoni muammolari bilan bog'laydilar.

Bu, ayrim tadqiqotlardan olingan ma'lumotlarga ko'ra, yosh futbolchilarning mashq va musobaqa faoliyatları orasidagi nomuvofiqlik natijasidir. Lekin hozirgi vaqtida bu muammo deyarli o'rganilmagan sanaladi.

Balki, shunday holat harakat ko'nikmalarini shakllantirish bo'yicha rejali va maqsadga yo'naltirilgan ish olib borilayotgan vaqtida bo'lajak sportchilarga o'rgatish davrining dastlabki bosqichlarida, amalda yuz bergenidek, sport texnikasi asoslарining yuzaga kelishiga sabab bo'lar.

Ma'lumki, harakatlarni bosqichma-bosqich shakllantirish nazariyasi qoidalariga asoslangan futbol texnikasiga dastlabki o'rgatish jarayonini tashkil

etish uni boshqarish imkoniyatini beradi va mashg'ulot jarayoni samaradorligini oshirishga yordamlashadi.

Harakat sifatlarini rivojlantirish asosida ixtisoslashuvning birinchi bosqichida organizmning akkumulyativ (to'plovchi) adaptastiya, ya'ni moslashuv qobiliyatlaridan foydalanish yotadiki, bunda takrorlanuvchi ta'sirlar tufayli asosiy harakat tizimlarini shakllantirish sodir bo'ladi. Shunday qilib, o'rgatishning dastlabki bosqichida mashg'ulot vositalarining butun xilma-xilligi va katta hajmini qamrab olishga ko'maklashadigan vari-ativlik ilgari suriladi.

O'yin texnikasini o'rgatish uzoq muddatli jarayon bo'lib, u o'rgatish yo'llariga taqsimlanadi (bunda har bir yil dasturni stiklik ravishda, lekin sifat jihatidan ancha yuqori darajada takrorlaydi), shuning uchun ham unda rejalashtirish alohida o'rinn tutishi kerak.

Futbol texnikasiga o'rgatish jarayonini shartli ravishda ikki bosqichga bo'lish mumkin, ular keljakdagi texnik qurollanganlik darajasini belgilaydi.

Birinchi bosqich birinchi, ikkinchi, uchinchi o'rgatish yillarini o'z ichiga oladi, bunda tegishli mashqlar yordamida ko'pgina oddiy va murakkab texnik elementlarni, futbol usullarini egallab olish hamda harakat ko'nikmalarining boy zahirasini o'zlashtirish amalga oshadi.

O'rgatishning boshlang'ich davri oddiy sharoitda, turgan joyda yoki kichik tezlik bilan, vaqt tanqisligisiz, dumalab ketayotgan to'p bilan, qarshiliksiz va h.k. bajariladigan ko'p miqdordagi bir maqsadli mashqlarning qo'llanishi bilan tavsiflanadi, bu esa barqaror sharoitlarda mustahkam ko'nikmalarni shakllantirishga ko'maklashadi.

O'rgatishning ikkinchi bosqichi – bu to'rtinchi, beshinchi, oltinchi yillar bo'lib, bunda futbol ixtisosini e'tiborga olgan holda haqiqiy o'yin sharoitlariga maksimal darajada yaqinlash-tirilgan maxsus vositalar qo'llanilib, texnikani chuqur o'rgatish amalga oshiriladi.

O'rgatish vaqtida foydalilaniladigan mashqlar tarkibida ko'p miqdorda birikmalar, bog'lamlar, qarshiliklar, sharoit va harakat-larning tez almashinishi

mavjudligi bilan tavsiflanadi hamda musobaqa sharoitiga yaqin sharoitlarda texnikani barqarorlashtirishni nazarda tutadi.

Amaliyotda qo'llanayotgan usuliyat etarlicha samarali emas, u sport maktablari o'quvchilarining texnik usullardan oqilona foydalanishlariga, jumladan, bir-biri bilan uyg'unlashtirish-lariga imkon bermaydi, degan fikr bor.

Agar futbol usullarini harakatda bajarish chog'ida ularning tuzilishi o'zgarib ketsa, yugurish vaqtida koordinastiyaning namoyon bo'lishi to'pni tezkorlik bilan nazorat qilish vaqtidagidan tubdan farq qilsa, u holda yoshlarni turgan joyida bunday usullarga o'rgatish, tezkorlik sifatlarini to'psiz mashqlar yordamida rivojlantirish samarasiz bo'ladi.

Shunga ko'ra yosh futbolchilarni tayyorlash jarayoni shunday qurilishi kerakki, texnik usullar bir-biridan ajratilgan holda (amaliyotda bu tez-tez uchrab turadi) emas, balki, odatda, o'yin vaziyatlarida ko'p uchraydigan tarzda uyg'unlashtirilgan holda "bog'lamlarda" o'rgatilishi va takomillashtirilishi zarur.

Futbolchining mahorati kuchli vaqt tanqisligi va psixikaning haddan ortiq qo'zg'alganligi sharoitida oqilona harakatlarni amalga oshirish malakasi bilan belgilanadi, bu golli vaziyatlarni yuzaga chiqarish chog'ida ayniqsa yaqqol namoyon bo'ladi.

O'yin mantiqiga ko'ra o'rgatishni to'pni harakatda qabul qilishdan boshlash va bunda zARBANI tezkorlikda va xilma-xil usulda bajarish ko'nikmasini shakllantirish lozim. Tabiiyki, tezkor talablarga erishish maqsadida murabbiylar jismoniy sifatlarni tez rivojlantirishga harakat qiladilar, mushaklarning tezlik-kuch imkoniyatlarini o'stiradilar, bu esa harakatlar aniqligiga, to'p bilan nozik muomala qilishga putur etkazadi.

Futbolda asosiy texnik usullar tezkorlik va aniqlikni uyg'unlashtirgan holda bajariladi, lekin aniqlikka talabning ortishi tezkorlikning susayishiga, tezkorlikni oshirish esa aniqlikning pasayishiga olib keladi. Murabbiyning vazifasi tezkorlik va aniqlikni oqilona uyg'unlashtirib tarbiyalash uchun qo'yilgan maqsadlarni ularning nozik jihatlarini ilg'ab almashlashdan iborat.

Turli yoshdagi bolalarda aniqlikni mashq qildirishning uch asosiy bosqichini farqlaydilar:

- 1) 7 yoshdan 8-11 yoshgacha – umumiylar harakat tayyorgarligi, sezgirlikning barcha turlarini rivojlantirish, asosiy futbol ko'nikmalarini o'zlashtirish bosqichi;
- 2) 11 yoshdan 14-15 yoshgacha, jinsiy etilish davri boshlanishiga qadar – futbol texnikasi “maktab”ini o'zlashtirish, tezlik sifatlarining rivojlanish bosqichi;
- 3) jismoniy etilish davri tugaganidan keyin – texnik mahoratni takomillashtirish, maxsus jismoniy tayyorgarlikni orttirish, alohida imkoniyatlarni ochish bosqichi.

YUqorida aytilganlardan kelib chiqib, texnik priyomlar va ularning o'rnatish jarayonidagi izchilligini ko'rsatish mumkin:

- 1) jonglyorlik;
- 2) oyoq bilan zarba berish;
- 3) to'pni uzatishlar;
- 4) to'pni qabul qilish;
- 5) to'pni olib yurish;
- 6) to'pni olib qo'yish;
- 7) bosh bilan o'ynash;
- 8) to'pni o'yinga yon chiziqdan qo'l bilan kiritish (aut).

Futbolchilarning texnik tayyorgarligini takomillashtirishda boshqa usuliy yondashuv yosh xususiyatlari va standart maydonlarning nomuvofiqligiga diqqat qilishdan iborat edi.

O'yinni olib borish sharoitlarini o'zgartirib, shunga erishdilarki, jamoani shakllantirish va tayyorlash tamoyilini o'zgartirish zarur bo'ldi. Bunday sharoitda jismoniy tayyorlik hamda jismoniy rivojlanishdagi tanqislik o'rmini texnik-taktik tayyorgarlik vositalari bilan bosish zarur edi.

11-12 yoshli futbolchilar musobaqalarini o'tkazishning tajribalar asosida ishlab chiqilgan shartlari o'zin faoliyatining mazmuniy jihatini ancha yaxshiladi.

Aldab o'tish va to'pni olib qo'yish kabi texnik-taktik harakatlarning 1,5 barobardan ko'proqqa, golli vaziyatlarning 82,5% ga keskin ortishi alohida kuchli o'yinchilarning o'sib borayotgan qiymatini belgilaydi va ulardan o'yinlarda yaxshiroq foydalanishni nazarda tutadi.

Futbol texnik usullarining murakkablik darajasi yuqori bo'lgan, koordinastion jihatdan ancha og'ir sport turiga kiradi va koordinastiya qobiliyatlariga yuqori talablar qo'yadi.

Tayyorgarlikning muayyan bosqichida yosh futbolchilarning texnik imkoniyatlarini samarali ro'yobga chiqarish uchun murabbiy chaqqonlikning turlicha namoyon bo'lishida yosh xususiyatlarining ahamiyatini yaxshi bilishi lozim. Tabiiy yosh dinamikasi hisobga olingan aksariyat tajriba tadqiqotlari tekshirilayotgan sifatlarning o'sishidagi sur'atlar notejisligini ko'rsatdi [ 26].

Shuning uchun, bajarilayotgan harakat faoliyatlariga xos xususiyatlardan kelib chiqib, chaqqonlikning alohida jihatlarini takomillashtirish izchilligining taxminiy sxemasini ularning ko'rsatilgan yosh davrlarida ko'proq rivojlanirilishiga bog'liq holda tavsiya etish mumkin:

- 9-10 yosh – harakat faoliyatida yugurish yo'nalishining silliq o'zgarishlari (burilishlar tipida) bo'ladi;
- 11-12 yosh – uncha katta bo'limgan amplitudali harakat faoliyatlarida yugurish yo'nalishining (to'g'ri chiziq bo'ylab yugurishga nisbatan) o'zgarishi;
- 13-14 yosh – yugurish yo'nalishini keskin o'zgartirib bajariladigan harakat faoliyatlarida ("siniq chiziqlar" tipida) va chaqqonlikning barcha ko'rsatilgan jihatlari;
- 15 yoshdan boshlab – bajarish tezligiga ahamiyat bergen holda chaqqonlikning barcha ko'rib chiqilayotgan jihatlarining 16 yoshdan 17 yoshgacha ustuvor ta'siri.

Bu muammoga e'tibor qilish o'yinning texnik priyomlarini egallash hamda musobaqa faoliyati sharoitida ularni amalga oshirish muvaffaqiyatini belgilaydi. Mazkur muammo ustidagi tadqiqotlar tahlili ushbu bo'lim nechog'li keng ekanligini ko'rsatdiki, shuning uchun ayrim konstepstiyalar ilmiy-usuliy

adabiyotlarda o'z aksini topmagan. SHu sababli ham bugungi kunda texnik tayyorgarlikka yangi yondashuvlarni izlash va ularni amaliyatga tatbiq etish muammosi ilgari suriladiki, u ortda qolish muammosini tezlik bilan echish, hamda milliy futbol jamoalarida texnik mahoratning ancha yuqori darajasiga olib chiqish imkonini bergen bo'lar edi.

Mamlakatimiz sportida yuqori natijalarni yanada oshirishning bugungi bosqichi professional asosga o'tishi bilan tavsiflanadi. Bu sportchilarning tayyorgarligini boshqarish sifatiga yuksak talablar qo'yadi, buning zaruriy sharti esa erishilgan mahorat darajasini ob'ektiv, ya'ni holis baholashdir. Bunday bahoning asosini boshqa ko'rsatkichlar qatorida musobaqa faoliyatini nazorat qilish natijalari ham tashkil etadi, chunki faqat raqib bilan keskin yakkama-yakka bellashuv sharoitida sportchilar tayyorgarligining ijobiyligi va salbiy tomonlari to'la namoyon bo'ladi.

Yuqori malakali futbolchilarni tayyorlash dasturlarining mazmuni ma'lum darajada o'yinchilarning musobaqa faoliyatini nazorat qilish natijasida olingan axborotning to'laligi va ishonchlilikiga bog'liq.

Sport o'yinlarida o'yinchilarning musobaqa faoliyati va sport mahoratini baholash uchun asosiy mezonlar sifatida mutaxassislar samaradorlik va natijalilik ko'rsatkichlaridan foydalanishni tavsiya etadilar.

Futbolchilarning musobaqa faoliyatini nazorat qilish va baholash masalalari bevosita yoki bilvosita tarzda ko'pgina mutaxassislarining diqqat markazida turadi. Lekin har bir muayyan holat tadqiqotchi oldida turgan alohida xususiy masalalarini hal etilishi bilan chegaralangan.

Shu bilan birga jamolar bilan olib boriladigan ishlarning eng muhim talablari mazkur muammoning echimiga har bir o'yinchining jamoa o'yini natijasiga qo'shgan hissasini baholash nuqtai nazaridan ham, o'quv-mashq jarayonini boshqarish nuqtai nazaridan ham tizimli yondashish zaruratini taqozo etadi.

Ko'pgina mutaxassislar musobaqa faoliyatini eng muhim hisoblab, uni integral ko'rsatkich darajasiga ko'taradilar, sport natijasini esa o'quv-mashq

jarayoni samaradorligining etakchi mezonlaridan biri deb hisoblaydilar. SHuning uchun mashg'ulot jarayonini bajarishda jamoa va alohida o'yinchilarning musobaqa faoliyatini tahlil etishga ko'p kuch berish tavsiya etiladi, negaki faqat mas'uliyatli musobaqalar sharoitida sportchilar tayyorgarligining ijobiyligi va salbiy jihatlari to'la namoyon bo'ladi. Musobaqa jarayonini chuqur o'rgangandan keyingina unga mos bo'lgan mashg'ulot tizimini ishlab chiqish mumkin.

Lekin bu erda alohida ta'kidlash kerakki, jamoali sport o'yinlarida alohida sportchilar tayyorligi darajasini ularning musobaqa faoliyatini nazorat qilish asosida baholash ancha murakkab, mutaxassislar buni sport natijasining *ko'p omilli* xususiyati deb ataydilar. Bu sport o'yinlarida nisbiy qiymatga ega.

Mazkur muammo ustidagi ishlar jamoali sport o'yinlari bo'yicha ko'pchilik mutaxassislarning diqqatini tortadi va usportdagi natija musobaqa faoliyatining ma'lum darajada bir-biri bilan aloqador bo'lмаган bir qator asosiy xususiyatlariga bog'liq, deb hisoblaydi. SHuning uchun ham musobaqa faoliyatining mazmuni bilan tayyorgarlikning tuzilishi orasida aniq *subordinastion* munosabatlarni belgilash zarurati mavjud bo'lib, musobaqa faoliyati samaradorligini ta'minlovchi tayyorlik omillarini aniqlash lozim. Demak, tayyorgarlikning alohida tarkibiy qismlarini takomillashtirish tizimi musobaqa faoliyatining shartli tarkibiy qismlarini aniqlash zarurati bilan chambarchas bog'lanishi kerak, chunki ular orasida yaqqol namoyon bo'luvchi subordinastion o'zaro munosabatlar mavjud [46]:

- 1) sportchi tayyorgarligining integral xususiyati sifatidagi sport natijasi;
- 2) musobaqa faoliyatining asosiy tarkibiy qismlari;
- 3) musobaqa faoliyatining asosiy tarkibiy qismlarini bajarish samaradorligini belgilovchi integral sifatlar;
- 4) musobaqa mashqining samarali bajarilishini ta'minlovchi asosiy funkstional parametrlar (o'lchamlar);
- 5) xususiy ko'rsatkichlar.

Shunga asoslangan holda ma'lum ma'noda sportdagi natijaning zamini hisoblangan mashg'ulotlar jarayoni samaradorligining mezonlari to'g'risidagi muammoni to'la hal etish faqat kompleks nazorat qilish yo'li bilan ta'minlanishi mumkin. Chunki u sportchilarning bellashuvlardagi faoliyati ko'rsatkichlarini albatta hisob-kitob qilishni nafaqat inkor etmaydi, balki aksincha, taqozo qiladi, deb ta'kidlovchi mutaxassislar fikrining to'g'riliгини tan olmoq kerak [10,14,21].

Bunda malakali sportchilar o'quv-mashq jarayonining turli tarkibiy qismlari tegishlichcha tahrir etiladi va samaradorligi nuqtai nazaridan baholanadi.

Masalan, Yu.A. Morozov futbolchilarning musobaqa faoliyati ko'rsatkichlarini o'yindan oldin o'tkaziladigan badan qizdirish mashqlarining turli variantlari samaradorligini baholash nuqtai nazaridan ko'rib chiqishni taklif etadi [39,40].

Boshqa mutaxassislar mashg'ulotlarning *adekvat* vositalarini tanlash paytida o'yin vaziyatlari xususiyatlarini hisob-kitob qilish zarur ekanligini ta'kidlaydilar.

S.A. Savin musobaqa faoliyati ko'rsatkichlaridan o'quv-mashq jarayonini tegishlichcha tahrir qilishda foydalanishni tavsiya etadi [53].

Alovida tayyorgarlikni oshirish va o'quv-mashq jarayonini individuallashtirish uchun musobaqa faoliyati ko'rsatkichlarini hisob qilishning maqsadga muvofiqligi I.A. Koshbaxtiev tadqiqotlarida ham o'z aksini topgan [27].

Etakchi mutaxassislar futbolchilarning eng yirik xalqaro turnirlardagi musobaqa faoliyati haqidagi ma'lumotlardan foydalanib, o'yinni rivojlantirish tendenstiyalarini tizimlashtirdilar [ 55,59].

O'yinchilar musobaqa faoliyatini nazorat qilish natijalaridan foydalanish, o'quv-mashq jarayoni samaradorligini baholash imkoniyati bilangina chegaralanmaydi. Ayrim mutaxassislar to'g'ri ta'kidlaganidek, jamoali sport o'yinlarida musobaqa faoliyatini nazorat qilish, boshqa jihatlardan tashqari, har bir sportchining umumjamoa natijasiga qo'shgan hissasini aniqlashga ham qaratilishi lozim.

Hozirgi vaqtda musobaqa faoliyatini qayd qilishning bir necha usuliyati mavjud. Masalan, ba'zi mualliflar musobaqa faoliyatini shartli belgilar vositasida qayd qilib borishni tavsiya etadilarki, ularning tahlili yo'l qo'yilgan kamchiliklarning xususiyati, asosiy o'yin usullarining miqdori va bajarilish yo'llari to'g'risida fikr yuritishga imkon beradi.

Ayni vaqtda, bunday usuldan foydalanish ko'p sonli ramziy belgilarni eslab qolishni talab qiladi, bu kuzatuvchining ishini ancha murakkablashtiradi, shuningdek, bajarilayotgan harakatlarning sifatiy jihatlarini aks ettirishga imkon bermaydi.

Boshqa mutaxassilar ham o'yinchilar musobaqa faoliyatini qayd etishning grafik (chizma) usulini tavsiya etadilar, lekin bu o'yin maydoni yoxud futbol maydonining miqyosi kichraytirilgan sxemasida amalga oshiriladi. Bu yo'lning asosini texnik-taktik harakatlar va ularni amalga oshirish o'rinalarini shartli belgilar bilan ko'rsatish tashkil qiladi [11].

Asosiy texnik-taktik harakatlarning butun majmuasini nisbatan to'la qayd etishga imkon yaratuvchi ancha zamonaviy yo'l stenografik yozuv usuli sanaladi. U yuqori malakali jamoalarning ish amaliyotida keng qo'llaniladi.

Qator mutaxassislarning fikricha, avvaldan ishlab chiqilgan bayonnomadan foydalanish musobaqa faoliyatini qayd etishning eng oqilona usuli hisoblanadi [19,23,32,39].

Musobaqa faoliyatini qayd etish natijalariga ishlov berishni tezlashtirish maqsadida mutaxassislar tomonidan boshqaruv pul'tida maxsus klavishli moslamalari bo'lgan o'zi yozadigan asboblardan foydalanishga qator urinishlar amalga oshirildi.

Musobaqa faoliyatini qayd etishning eng zamonaviy yo'l asosiy texnik-taktik harakatlarni diktofonga magnit yordamida yozib olish bo'lib, uni maxsus bayonnomaga blankasiga shifrini ochgan holda yozish hamda alohida sportchilar va umuman butun jamoa o'yinining miqdoriy-sifat xususiyatlarini hisob-kitob qilish uchun keyinchalik grafik yozuvda ifodalash mumkin. Bunda musobaqa faoliyati tuzilishini eng to'liq aks ettirgan texnik-taktik harakatlar qayd etiladi.

Hozirgi vaqtda jamoali sport o'yinlarida o'quv-mashq jarayonining samaradorligi darajasining emas, har bir alohida sportchining o'yin natijasiga qo'shgan hissasini ham aniqlash uchun zarur bo'lgan ancha katta hajmli ko'rsatkichlarni tegishli mezonlar bilan taqqoslash, ya'ni baholash lozim.

Maxsus adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatdiki, jamoali sport o'yinlarida musobaqa faoliyatini baholash jarayonini mutaxassislar ikki nuqtai nazaridan: birinchidan, baholash mezonlarini tanlash nuqtai nazaridan, ikkinchidan, baholash usulini tanlash nuqtai nazaridan tekshiradilar [45,46,47,51].

Misol, futbolda eng keng tarqalgan amaliyot – o'yinda bajarilgan alohida va umumjamoa texnik-taktik harakatlarining miqdoriy (hajmi) hamda sifatiy jihatlari (xatolar foizi yoki samaradorlik koeffistienti) bo'yicha musobaqa faoliyatiga baho berishdir.

Hozirgi paytda musobaqa faoliyatini baholash mezonlari sifatida boshqa ko'rsatkichlar ham tavsiya etiladi. Masalan, V.V. Solomenko yorib o'tuvchi hujumlarning miqdoriy va sifat o'lchamlarini qo'llashni taklif qiladi. Hujum harakatlarini integral baholashni M.A. Godik, P.P. CHerepanov, R.Z. Galeev tavsiya etadilar [16,17,18].

Musobaqa faoliyatini baholashga yangicha yondashuv S.A. Savin va M.S. Kim tomonidan ishlab chiqildi. Uning mohiyati barcha texnik-taktik harakatlarni birlashgan va erkin harakatlarga taqsimlashdan iborat bo'lib, bu to'pli yoxud to'psiz o'yinchilar harakatlarining konstruktiv hamda vayron etuvchi jihatlarini ko'rib chiqishga imkon beradi [53].

O'yin jarayonida sportchi bajaradigan tezkor faoliyat hajmini qayd qilishning samarali usullari taklif qilingan bo'lib, bunday faoliyat ko'rsatkichlari ham mutaxassislar tomonidan futbolchilar musobaqa faoliyatini baholashda qo'llaniladi [11,25].

YUqori sport mahorati harakatlarning ishonchliligi va bexatoligi bilan tavsiflanadi deb hisoblaydigan nuqtai nazar ba'zan amaliyotda foydalilaniladigan yana bir mezon – o'yin faoliyati davomida yo'l qo'yilgan xatolar miqdoriga qarab baholashni nazarda tutadi. Biroq, o'yin chog'idagi hujumda aytib o'tilgan

ko'rsatkichni yaxshilashga intilish sportchilarni haddan ortiq ehtiyyotkorlikka undaydi. Ayni vaqtda mazkur ko'rsatkich samaradorlik ko'rsatkichining tarkibiy qismi hisoblanadi, demak, uni mustaqil holatda ajratib ko'rsatish mumkin emas.

Samaradorlik deganda, umuman, faoliyatning foydaliligi yoki maqsadga muvofiqligi tushuniladi. O'yinchilarning musobaqa faoliyati samaradorligi ko'rsatkichini tekshirish orqali uning qiymati raqib mahoratiga bog'liqligini qayd etilgan. Boshqa mualliflar bu ko'rsatkichning sportchilar jamoasi tarkibida bajaradigan o'yin funkstiyalariga bog'liqligini ayirib ko'rsatadilar [ 63].

Musobaqa faoliyatini baholash muammosini shu muolajani amalga oshirish usulini tanlash nuqtai nazaridan qarab chiqqanda, jamoali sport o'yinlarida maqsad va vazifalarga ko'ra qayd etiladigan kattaliklar bilan taqqoslanishi mumkin:

- 1) boshqa o'yinchilar va jamoalarning ko'rsatkichlari;
- 2) avvalgi kuzatuvlarning ko'rsatkichlari;
- 3) ilgari o'tkazilgan o'yinlarning eng yaxshi ko'rsatkichlari;
- 4) eng yaxshi o'yinchilar va jamoalarning ko'rsatkichlari;
- 5) o'yinda g'alabaga erishish uchun sharoit yaratadigan ko'rsatkichlar;
- 6) baholash shakllari ko'rsatkichlari.

SHubhasiz, musobaqa faoliyati ko'rsatkichlarini baholashning sanab o'tilgan yo'llari o'quv-mashq jarayonini boshqarishda ham, har bir o'yinchining jamoa o'yini yakuniga qo'shgan hissasini aniq-lashda ham yaroqliligi darajasi jihatidan turlicha.

Masalan, musobaqa faoliyati ko'rsatkichlarini boshqa jamoa-lar va alohida sportchilarning o'yin o'lchamlari bilan taqqoslash ana shu taqqoslanayotgan ko'rsatkichlar orasidagi tafovutlar xususiyati hamda qiymatini aniqlashga imkon beradi – ko'proq-kamroq, yaxshiroq-yomonroq va hokazo.

YAxshi ma'lumki, bunday ma'lumot faqat muayyan raqib bilan uchrashuvga tayyorlanish vaqtidagina jamoa va alohida o'yinchilar strategiyasi hamda taktikasini ishlab chiqishga yordam beradi. Lekin o'quv-mashq

jarayonini boshqarish yoki har bir sportchining jamoa o'yini natijasiga qo'shgan hissasini baholash uchun buning o'zi kamlik qiladi.

Izchil o'zgarishlar jarayonida qayd etiladigan musobaqa faoliyati ko'rsatkichlarini avvalgi o'yinlardagi nazorat natija-lari bilan taqqoslash qayd etiladigan qiymatlardagi o'zgarishlar yo'nalishi hamda siljish darajasini aniqlashgagina yordam beradi – ko'proq-kamroq, yuqoriq-pastroq, yaxshiroq-yomonroq va hokazo.

Masalan, futbolchilarning musobaqa faoliyatini 15 daqiqalik o'yin kesmalar bo'yicha nazorat qilish malakali sportchilarning maxsus chidamliligi darajasini bilvosita aks ettiruvchi o'yin davomidagi miqdoriy va sifat ko'rsatkichlari diagrammasinigina kuzatish imkonini beradi.

Keyingi vaqtarda futbol amaliyotida musobaqa faoliyati ko'rsatkichlarini baholash nuqtai nazaridan yondashuv tobora ko'proq qo'llanilyapti, bunday baholash haqiqiy qiymatlarni muayyan andoza (etalon) yoki musobaqa faoliyati samaradorligiga xos model o'lchamlar bilan solishtirishga asoslanadi. Zotan, bu modellar muvaffaqiyatga erishish uchun intilish zarur bo'lgan musobaqa faoliyati darajasini ko'rsatadi. Shuningdek, model xususiyatlaridan foydalanish o'yinchilar tayyorligidagi sifat o'zgarishlarini aks ettirmaydigan musobaqa faoliyati ko'rsatkichlarining faqat nisbiy baholarini olishga imkon beradi [23].

Bizningcha, shu nuqtai nazaridan qaraganda, olingan musobaqa faoliyati ko'rsatkichining qo'llaniladigan andozadan farqlanish darajasiga nisbatini aniqlashga imkon beruvchi baholash usuli eng qulaydir.

Albatta, bunday yondashuv malakali sportchilarning musobaqa faoliyati ko'rsatkichlari bahosini o'yinchilar tayyorligi alohida tomonlarining zaruriy takomillashuvi o'lchamlarini ko'rsatuvchi mutlaq qiymatlarda olish uchun sharoit yaratadi.

Shunday qilib, hozirgi vaqtda jamoali sport o'yinlarida har bir o'yinchining jamoa o'yini natijasiga qo'shgan hissasini aniqlash, shuningdek, o'quv-mashq jarayonini optimallashtiruvchi tahrirlar kiritish uchun qo'llanadigan musobaqa faoliyati ko'rsatkichlarini baholash usullari ishlab chiqilgan.

## **1.2. YOsh futbolchilarning texnik-taktik tayyorgarlik tomonlarini o'rganish muammolari**

Bugungi kunda futbol sport turining kun sayin rivojlanishi, jismonan baquvvat va iste'dodli o'yinchilarni taylorlab berishni taqozo etmoqda.

Ixtisoslashgan bolalar va o'smirlar olimpiya zaxiralari sport maktablari hamda futbol yo'nalishidagi mакtab-internatlar nizomida ko'rsatib o'tilganidek, iste'dodli va umidli futbolchilarni tarbiyalash butun o'quv mashg'ulot davomida olib boriladi.

Keyingi yillarda futbolga doir ko'pgina ilmiy maqolalar, usuliy ko'rsatmalar va qo'llanmalarda yosh futbolchilarni iqtidorli futbolchi qilib tarbiyalash masalalari keng yoritilmoxda.

Murabbiylar futbolchilarning yoshlik davrdan texnik- taktik harakatlarga katta e'tibor qaratishni ta'kidalaydilar.

R.I. Nurimov, yosh futbolchilarning texnik tayyorgarligi, o'yin texnikasining ayrim usullariga o'rgatish, o'rganilaganlarni nazoratsiz qoldirilishi mumkin emasligi, agar o'yin texnikasiga o'rgatish rejalashtirilgan, muntazam mashg'ulotlar bilan o'tkazilsa, unda yaxshi natija berishini ta'kidlagan [44].

Yosh futbolchilarning dastlab tayyorgarligi o'yin texnikasidani xatolarni tuzatish, texnik tayyorgarlikda muhim ahamiyatga ega, ayniqsa, bu narsa boshlovchi o'yinchilar uchun ahamiyatlidir. Texnikani yomon o'zlashtirish oxir oqibat mahoratni keyinchalik takomllashtirishga to'sqinlik qiladi. Futbol mutaxassislari futbolga endi kirib kelgan bolalarning texnik harakatlanirni tarbiyalashda, to'pni his qilish qobiliyatini rivojlantirish, bunda to'p bilan oddiy mashqlar, to'pni olib yurish, to'pni tepish va janglyorlak qilishni, har mashg'ulotda olib borishni e'tirof etishadi [6,7,18,19,20,67,73,74].

K.X. Xedergot, A. Chanadi xulosalariga ko'ra, hamma mashg'ulotlar turlari orasida yangi shug'ullanuvchilar uchun birinchi navbatda «sof» texnika buyicha o'tkaziladigan trenirovka muhim ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlashadi [61,62].

Texnika turidagi trenirovkalarni o'tkazish tezligi quyidagilarga bog'liq:

- yosh futbolchilarning yoshi;
- ularning tayyorgarlik darjasи;
- trenirovka davri;
- trenirovka sharoitlari.

Haftadagi mashg'ulotlar soni uch marta yoki undan ortiq bo'lган va tegishli miqdorda to'plarga bo'lган jamoalarda, mashg'ulot davridan qat'i nazar, haftadagi kamida bitta trenirovka «sof» texnika bo'yicha o'tkazilishi kerak. O'smirlar va o'spirinlik yoshidagi futbolchilar gavda tuzilishi hamda markaziy asab tizimi holati nuqtai nazardan, harakatlarni juda yaxshi egallab olish xususiyatiga ega.

Yangi futbolchilar trenirovkalarida jismoniy va asab tizimiga tushadigan nagruzka o'yinchining texnika darajasiga mos bo'lishi mumkin. Haddan tashkari bo'lган nagruzkalar zo'riqish yoki tezlik yaxshi o'zlashtirishga to'sqinlik qiladi, buning natijasida harakatlarda ma'lum bir xatolar mustahkamlanib qoladi.

O'yin texnikasiga boshlangich o'rgatishda sharoitlarni engillashtirish va tegishli uslublar bilan texnikani tez egallahda o'yinchilarga yordam ko'rsatish lozim. O'yinchilar bajariladigan texnika usullarini «tushunib etganlaridan», texnika usullarini nisbatan mustahkamlab olganlaridan so'ng kelgusidagi o'rgatishda boshlang'ich davrda qo'llanilgan o'sha uslublardan foydalanmaslik zarur.

O'rgatishdagi xatolik, bir tomondan, qo'llaniladigan o'rgatish uslublaridan, ikkinchi tomondan shundan iboratki, texnikani egallah paytida futbolchilar ba'zan tegishli jismoni tayyorgarlikka ega emaslar.

Xatolikning tez-tez yuzaga kelishi yana shunga bog'liqki, o'yin texnikasi buyicha mashqlar ham jadallik bilan bajarilmaydi. Ko'pchilik futbolchilar, ularga hech kim halaqt qilmagan paytlarda, to'p bilan a'lo darajada o'ynaydilar, hattoki stirkcha tryuklarga ham qodir bo'ladilar, lekin o'yinda esa ularni tanib bo'lmaydi.

Kuchli kurashish vaziyatlari futbol o'yini uchun xosdir. Yuqorida aytib o'tilganidek, gavda bilan kurash olib borishga futbol qoidalarida ruxsat beriladi. Bu o'yinda raqib tomonidan faol qarshilik ko'rsatish vaziyatida texnika usullarini har vaqt va har erda bajarish lozim demakdir. Shuning uchun yosh futbolchilarni bunday o'yinga tayyorlab borish juda muhimdir. O'yin texnikasiga o'rgatish va trenirovka uslublari o'yin mohiyatiga zid bo'lmasligi lozim, aksincha, texnikaga o'rgatishda o'yin talablarini har doim hisobga olish zarur. O'yin vaziyatlariga yaqinlashtirilgan va o'yinchilarining o'yindagi majburiyatlarini hisobga olib tanlangan mashqlar juda muxim bo'lib, trenirovka mashg'ulotlari o'quv materiallarining 50-60% ni tashkil etadi.

O'yin vaziyatlarining hayotiyligiga qaratilgan texnika buyicha mashqlar yuzaga keladigan o'yin holatlarining mukammal nusxasi hisoblanadi. Mashqlarning mohiyati: o'yindagiga yaqin tezlik va raqibning faol to'sqinlik qiluvchi faoliyati. Mashqlarni o'rganish paytida raqibning faol harakat qilishi juda muhimdir. Agar o'yinchi raqibiga halaqit berayotgandek o'zini ko'rsatishga xarakat qilsa, bu mashq foyda keltirmaydi.

Ilg'or tajribalarni umumlashtirish shuni ko'rsatdiki, tayyorgarlikning boshlang'ich davridagi o'quv mashg'uloti ishlari quyidagicha prinstiplar asosida olib borilishi lozim [33].

1. O'kuv-trenirovka mashg'ulotlaridan tashqari vaqtida bolalarni faqat uynab o'rganaolmayotgan yo bo'lmasa qo'pol xatolar qilib o'rganayotgan texnik usullar va taktik harakatlar bilan shug'ullantirish lozim. O'yinda kam uchraydigan vaziyatlarni, biroq muhim biomexanika asosida tashkil etuvchi harakatlarni alohida-alohida o'rgatiladi.

2. Taktik va texnik tayyorgarlik bo'yicha o'quv materiallarini bosqichma-bosqich emas, balki spiralsimon o'rgatish kerak. Bunad albatta quyidagi vazifalar quylishi lozim:

a) futbolchilarning texnik priyomlari va taktik harakatlarining turli-tumanligi haqida keng ko'lamma tushuncha berish;

**Yosh futbolchilar tayyorlashdagi zamonaviy uslub va vositlardan  
foydalananish (M.A. Godik )**

<b>YOsh</b>	<b>Yangicha tashkil qilish. Tayyorlashning vosita va metodlari</b>	<b>Mavjud ishlar.</b>
8-10	Barcha sport vositalaridan, birinchi navbatda futboldan foydalangan holda sport o'yinlari uchun tayyorgarlik (o'yin shaklida).	Futbolda boshlang'ich ixtisoslashish. Asosan standart holatlardan foydalananish, tanlab olish mahoratga qarab emas, balki o'yinlar va jismoniy tayyorgarlik testlari natijalariga qarab bo'ladi.
11-12	Futbolda boshlang'ich ixtisoslashish. Alovida o'yin mashq-lari yiliga 23-35 o'yindan ko'proq.	Standart mashqlardan foydalangan holda dastlabki tayyorgarlik. Yiliga 30-40 uyin.
13-14	Futbol texnikasi va taktikasini diqqat bilan o'rgatish. Alovida standart mashqlari 50% dan ortadi, yiliga 15-20 o'yin.	O'rgatishni o'yin amaliyoti bilan qo'shib olib borish. Yiliga 30-45 o'yin
15-16	O'rgatishni o'yin amaliyoti bilan olib borish. Turli xil o'yin va standart mashqlar hajmi. Yiliga 25-35 o'yin.	faol o'yin amaliyoti

b) eng muhim texnik usullar va taktik harakatlarni mahorat va malaka darajasiga ko'tarish;

v) yosh futbolchilarni tayyorlashning dastlabki bosqichida o'yin o'quv mashgulotlarining samarali vositasidir. G'alaba qozonish ilmi bolalikdan o'rgatiladi.

### **1.3. Yosh futbolchilar guruhida o'quv - mashg'ulotlarini rejalashtirish xususiyatlari**

Futbolchilar sport mahorati darajasining bundan keyingi rivojlanib borishi bolalar va o'smirlar futbolining o'sishi bilan chambarchas bog'liqdir. SHu sababli, mamlakatimizda bolalar va o'smirlar futbolini yanada rivojlantirishga qaratilgan qator tadbirlar orasida futbol mashg'ulotlarni,tayorgarliklarni to'g'ri rejalashtirsh alohida o'rinn tutadi.

M.A. Godik, D.V. Kuzmichevlar bolalarga futbolning oddiy sirlarni o'rgatishdan boshlab, ularni yuqori malakali fubolchilar qilib tarbiyalash butun bir tizim xisoblanadi va u aniq reja asosida olib borilishi kerakligini ta'kidlaydilar [17].

Rejalashtirish- sportchini tayyorlashning ko'p yillik bosqichida natijalarning o'sishini taminlovchi asosiy va muxim talablardan biri bo'lib sport mashg'uloti tizimining umumiy asosiy va metodlariga tayangan holda boshlanadi [7].

Sport maktablarida o'quv mashg'ulotini jarayonini tashkil qilish mashg'ulotning zamonaviy uslubiyati asosida,yosh futbolchilarning yuqori mashg'ulot yuklamalarni o'zlashtirishi orqali amalga oshiriladi. Futbol maktablarida o'quv rejasini bajarish shartligi, amaliy va nazariy mashg'ulotlarni uzluksiz bajarish, yosh futbolchilarni tanlash tizimni yaxshi tashkil qilish, musobaqalarda muntazam ishtirok etish, tiklanish profilaktik tadbirlarni amalga oshirishlarni qatiy roiya etish muhimligini mutaxasislar takidlaydilar[ 24].

Sport maktablaridagi bo'limlar boshlang'ich tayoyrlov va o'quv mashg'ulot guruhlaridan shakllanadi. Sport tayoyrgarligida yuqori natijalarga erishilgan va zarur sharoitlar yaratilgan IBO'OZSM larda sportni takomilashtirish guruxlari tashkil etiladi.

Boshqa sport turlari kabi futbol uchun ham raqibga qarshi jamaoaviy yakka kurashlar xarakterlidir. Bu yakka kurashlar nafaqat invidual, balki jamoaviy o'yin harakatlarini rivojlantirishni talab qiladi. Ushbu asoslarni hisobga olib, o'quv mashg'ulot jarayonida ketadigan vaqt taxminana shunday bo'linadi: jismoniy tayyorgarlikka 20–25 %, texnik iayyorgarlikka 30-35% , taktik o'yin va musobaqa tayyorgarligiga 40-45%. Bu raqamlarga yosh o'zgarishi, o'yinchilar mahorati va tayyorgarlik davriga qarab albatta o'zgartirishlar kiritiladi [32].

Futbol jamoalarini va alohida o'yinchilarni tayyorlashni rejalashtirish mashg'ulotning umumiyligi ob'ektiv qonunlariga qarab bazalashtiriladi. Uning tarkibiga umumiyligi va maxsus tayyorgarlikning birligi mashg'ulot jarayonining uzviylicha maksimal yutuqqa yo'naliish cheklangan yuklamalar tendenstiyasi davriylik jarayoni kiradi.

O'yinchilarning bir mavsum davomida ortirgan funkstional imkoniyatlarining rivojlanish bochqichi keyingi mavsumlarda ham mustaxkamlanib, rivojlantirib borishi kerak. Faqat bir yo'naliishda tashkil etilgan tayyorgarlik kerakli bo'lган natijalarga etaklaydi.

Rejalashtirishda, shuningdek sportchining gormonik rivojlanishi uning jismoniy va ruhiy imkoniyatlarini inobatga olish zarur. Undan tashqari, sportchining yoshi, jinsi, professional salohiyati, jismoniy rivojlanish bosqichi, tayyorgarlik yo'naliishi, bo'lajak musobaqalar taqvimi moddiy baza mashg'ulotlarini tashkillashtirishning boshqa talablarini ham ko'zda tutish lozim.

Avvalambor ko'zlangan ishning tuzilishi va xajmini aniqlab olish vaqtini, davrni to'g'ri taqsimlash, shuning yakuniy natijani belgilab qo'yish lozim. Rejalashtirishga albatta vaq va sharoitga qarab o'zgartirishlar, aniqliklar va qo'shimchalarni kiritish mumkin.

Rejalar tuzishda rejaning vazifalar, tuzilishi, bajarilish bosqichi, yo'l qo'yilgan xatolar tahlil qilinadi. Har bir yaratilgan reja tadbirlari sekin oshib boradi.

Futbol o'yini texnik harakatlarga boshlang'ich o'rgatishda sharoitlarni engillashtirish va tegishli uslublar bilan texnikani tez egallahsha o'yinchilarga yordam ko'rsatish lozim. Yosh futbolchilar bajariladigan texnika usullarini mustahkamlab olganlaridan so'ng kelgusidagi o'rgatishda boshlang'ich davrda qo'llanilgan o'sha uslublardan foydalanmaslik muxidir.

### **I bob mavzusi bo'yicha xulosa**

Yosh futbolchilarning texnik-taktik harakatlarni tarbiyalash ko'pgina mutaxassislar tomonidan o'rganilgan. O'rganilgan, tahlil qilingan ishlarda futbolchilarning 10-14 yoshlarida texnik-taktik xarakatlarni o'zlashtirish, rivojlan-tirish mashg'ulotlarda birinchi darajali bo'lib qaralishi ta'kidlangan.

Malakaliy mutaxassislar o'z kitoblarida, o'quv qo'llanmalarida, ilmiy ishlarida, yosh futbolchilarning texnik-taktik harakatlarini rivojlantirishni keng doirada yoritib berishgan.

Futbolchilar tayyorgarligining asosiy mezoni musobaqa faoliyati, u o'yin natijasi va murabbiyning ekspert bilan bir qatorda, tezkor ish hajmi, shuningdak, texnik-taktik harakatlarning miqdori va aniqligi bilan tavsiflanadi. O'yinchilarning musobaqa faoliyati to'g'risidagi axborot asosida murabbiy jamoa tayyorgarligini joriy rejasiga tegishli o'zgartirishlar kiritadi.

Yosh futbolchilarning texnik taktik xaraktlarni tarbiyalashda futbol o'yin qoidalarni yoddan bilish muximdir. O'yin qoidalarni o'zlashtirgan yosh futbolchi o'yin vaziyatlarida o'z jamoadoshlarni xujumda, ximoyadagi xarakatlari noaniqliklar yuzaga kelishga yo'l qo'ymaydi. Futbol o'yinlarida futbolchilarning o'yin qoidalarni bilmasligi, xakamlar bilan tortushuvularini, vaziyatlarda oddiy qoidalarni buzilshini, xatokki yirik musobaqarlada xam kuzatilishi sir emas.

O'yinchilar o'yin maydoni, maydonchalar, darvoza va to'pning o'lchamlari xakamlarni majburiyatları to'g'risidagi malumotlarni bilishi shart.

Tekshirishlardan shuni aniqladikki, yosh futbolchilarni o'yindan tashqari xolatda, jarima va erkin to'plarni o'yinga kiritishda xattoki yon chiziqdan to'pni

tashlashda xatolarga yo'l qo'yishadi. Yosh darvozabonlar xam qoidani bilmasliklari tufayli, jamoalarni mag'lubiyatga uchrashlariga olib kelishadi.

Ma'lumki, musobaqa faoliyatini o'rganish jarayoni har o'yin davomida futbolchilar tomonidan namoyish etiladigan juda ko'p ma'lumotlarni yig'ish imkonini beradi. Lekin yosh futbolchilarda bunday ma'lumotlarni o'rganish natijalari muofiq adabiyotlarida etarli aks etirilmagan.

Yosh futbolchilarning dastlab tayyorgarligi o'yin texnikasidani xatolarni tuzatish, texnik tayyorgarlikda muhim ahamiyatga ega, ayniqsa, bu narsa boshlovchi o'yinchilar uchun ahamiyatlidir. Texnikani yomon o'zlashtirish oxir oqibat mahoratni keyinchalik takomllashtirishga to'sqinlik qiladi.

## **II BOB.TADQIQOT ISHINING MAQSADI, VAZIFALARI, USLUBLARI VA TASHKIL ETILISHI**

### **2.1. Tadqiqot ishining maqsadi va vazifalari**

Tadqiqotning maqsadi – yosh futbolchilarning texnik-taktik xarakatlanishlarini tarbiyalash asosida faoliyat samaradorligi va o'yin natijaviyligini oshirish metodikasini o'rganish.

Shu maqsadni amalga oshirish uchun quydagи vazifalar bajarildi.

1. Yosh futbolchilarning texnik va taktik tayyorgarlik tayyorgarligi bo'yicha o'tkazilgan nazariy, amaliy va empirik tadqiqotlar tahlili.
2. 13-14 yoshli futbolchilarning texnik-taktik tayyorgarlik maxsus mashqlar va nazorat testlarni ishlab chiqish.
3. 13-14 yoshli futbolchilarning o'yin jarayonida faoliyat samaradorligini tadqiqiy asoslash.

### **2.2. Tadqiqot ishning ilmiy tekshiruv metodlari**

Qo'yilgan vazifalarni echishni amalga oshirish uchun quyidagi ilmiy uslublardan foydalaniлади

1. Ilmiy - adabiy manbalarni tahlil qilish.
2. Pedagogik kuzatish.
3. Pedagogik testlash.
4. Pedagogik tajriba
5. Matematik hisoblash metodi.

#### **2.2.1. Ilmiy adabiyotlar tahlili**

Yosh futbolchilarning texnik-taktik harakatlarni tarbiyalash ko'pgina mutaxassislar tomonidan o'r ganilgan. O'r ganilgan, tahlil qilingan ishlarda futbolchilarning 10-14 yoshlarida texnik-taktik xarakatlarni o'zlashtirish, rivojlan-tirish mashg'ulotlarda birinchi darajali bo'lib qaralishi ta'kidlangan.

1970-1980 yillarda Chexiya, Vengriya va Germaniyalik mutaxassislar o'z kitoblarida, o'quv qo'llanmalarida, ilmiy ishlarida, yosh futbolchilarning texnik-taktik harakatlarini rivojlantirishni keng doirada yoritib berishgan.

Futbolchilar tayyorgarligining asosiy mezoni musobaqa faoliyati , u o'yin natijasi va murabbiyning ekspert Bilan bir qatorda, tezkor ish hajmi, shuningdak, texnik-taktik harakatlarning miqdori va aniqligi bilan tavsiflanadi.O'yinchilarning musobaqa faoliyati to'g'risidagi axborot asosida murabbiy jamoa tayyorgarligini joriy rejasiga tegishli o'zgartirishlar kiritadi.

Ma'lumki, musobaqa faoliyatini o'rganish jarayoni har o'yin davomida futbolchilar tomonidan namoyish etiladigan juda ko'p ma'lumotlarni yig'ish imkonini beradi. Lekin yosh futbolchilarda bunday ma'lumotlarni o'rganish natijalari muofiq adabiyotlarida etarli aks etirilmagan.

### **2.2.2. Pedagogik kuzatish**

Yosh futbolchilarning jamoaviy, individal texnik-taktik harakatlari hamda 2015 – 2016 o'quv yili davomida futbol bo'yicha sport maktablari o'rtasida o'tkazilgan Buxoro shahar birinchiliklar, o'rtoqlik uchrashuvlari tahlil qilindi.

Pedagogik kuzatuv predmeti sifatida futbolchilarning o'yin davomida quyidagi texnik-taktik harakatlari qayd qilindi:

- to'pni uzatishlar;
- to'pni olib yurish;
- aldash harakatlari;
- to'pni olib qo'yish;
- bosh bilan o'ynash;
- darvoza tomon zarba berish;
- jarima to'plardan foydalanish.

Bu harakatlarni qayd qilish, tekshirish uchun YU. Morozov, N. Lyukshinov tomonidan ishlab chiqilgan uslubdan foydalanilgan [34,39,40,41].

IBO'OZSM va BO'SM internatning boshlang'ich tayyorgarlik guruhlari jamoalarida qanot va markaziy hujumlarni amalga oshirish samaradorligi 2015 va 2016 yillar davomida kuzatildi, samaradorlik foizining dinamik o'zgarishi tahlil qilindi.

Bundan tashqari kuzatilgan rasmiy o'yinlarda darvoza tomon berilgan zARBalar natijaviyligi tajriba va nazorat guruhlari kesimida quyidagi tarkibda tahlil qilindi:

- bosh bilan berilgan zARBalar (marta);
- oyoqda berilgan zARBalar (marta);
- jarima maydoni ichida (marta);
- jarima maydoni tashqarisida (marta);
- jami zARBalarning o'rtacha qiymati (X);
- samaradorlik koeffistienti (%).

Olingan natijalarga asoslanib kuzatilgan jamoadagi individual futbolchi haqida, hamda jamoaviy ko'rsatilgan natijalarga ham baho berish, umumiy xulosa yaratish imkonini kelib chiqdi.

### **2.2.3. Pedagogik testlash**

Sport sohasida testlash metodikasi – qisqa vaqt sarflanishi, tanlab olingan testlar yosh futbolchilar mashg'ulotining texnik – taktik tayyorgarlik mazmuni bilan organik bog'liqligi, test natijalarining ob'ektivligi, natijalarga qayta ishlov berish imkoniyati va tahlil qilishning soddaligi, tezkorligini ta'minlashdan iborat bo'lgan talablar asosida ishlab chiqildi [16].

13-14 yoshli shug'ullanuvchilarining texnik tayyorgarlik holatini tekshirish hamda tajriba va nazorat guruh jamoalari ko'rsatkichlarini qiyoslash uchun quyidagi testlar majmuasi qo'llanildi:

1. 30 metrga to'p bilan yugurish (soniya);
2. To'pni belgilangan mo'ljalga aniq tepish (8 imkoniyat/marta);
3. Ustunlar orasidan to'pni olib yurish va darvozaga zarba (soniya);
4. 30 metrga to'pni aniq uzatish (5 imkoniyat/marta);
5. To'p bilan janglyorlik (daqiqa/marta);
6. "Konvert" 10 X 10 m. to'p bilan yugurish (soniya).

### **2.2.4. Pedagogik tajriba**

Pedagogik tajriba Buxoro shahar ixtisoslashgan bolalar va o'smirlar olimpiya zaxiralari futbol maktabi 13 – 14 yoshli boshlang'ich tayyorlov

guruhida tashkil etib o'tkazildi. Dissertasiya ishida qo'yilgan maqsad va undan hosil bo'lgan xususiy vazifalardan kelib chiqib ikki yillik pedagogik tadqiqot tashkil etildi. Pedagogik tadqiqot ikki bosqichda o'tkazildi:

Birinchi bosqich 2014-2015 yil davomida mavzuga doir maxsus adabiyotlar o'rganildi, Buxoro shahar ixtisoslashgan olimpiya zaxiralari sport maktabi, bolalar va o'smirlar sport maktab internatning futbol bo'yicha boshlang'ich tayyorgarlik guruhlarida yo'lga qo'yilgan sport tarbiyaviy ishlar kuzatildi, tayyorgarlik jarayoni atroflicha o'rganib chiqildi.

Buxoro shahar sport (futbol) maktab va internatning boshlang'ich tayyorgarlik guruhi jamoalari qatnashgan, 2014 -15 o'quv yilida o'tkazilgan barcha rasmiy musobaqa o'yinlari maxsus kuzatuv rejasiga asosan tahlil qilindi va o'yin xususiyatlari o'rganildi. Kuzatuv predmeti sifatida boshlang'ich tayyorgarlik boqichining "tajriba" va "nazarat" guruhi jamoalarida hujumni tashkillashtirish samaradorligi, yosh futbolchilar tomonidan amalga oshirilgan texnik – taktik harakatlari va yo'l qo'yilgan xatolar qayd etib tahlil qilindi. Buxoro shahar birinchiligi o'yinlarida o'yinchilarning hujum faoliyatidagi darvoza tomon berilgan zARBALAR natijaviyligi tahlil qilindi.

Sport mashg'ulotlari jarayonida an'anaviy qo'llaniladigan texnik–taktik harakatlarga doir maxsus mashqlar tarkibi tanqidiy tahlil qilinib yangicha mashqlar tizimi ishlab chiqildi.

Ikkinci bosqich 2015-2016 o'quv yili davomida №3 son ixtisoslashgan bolalar va o'smirlar olimpiya zaxiralari sport maktabi 13-14 yoshli tarbiyalanuvchilardan iborat boshlang'ich tayyorlov guruhlarida (Murabbiy Mo'minov F.I. nazarat guruhi va murabbiy Raxmatov Sh.N. asosiy tajriba guruhi) asosiy pedagogik tajriba tashkil etildi. Pedagogik tajriba muhim tekshiruv metodi sifatida maxsus tashkil etiladigan sport mashg'ulotlari jarayonida texnik- taktik mashqlar majmuasi va nazarat tizimi samaradorligi tekshirildi.

Tajriba davomida, Buxoro shahar ixtisoslashgan bolalar va o'smirlar olimpiya zaxiralari sport maktabining 13-14 yosh futbolchilarning texnik-taktik

tayyorgarlik darajalarini tekshirish uchun nazorat testlari o'tkazildi. Nazorat testlari tarkibida - to'pni mo'ljalga aniq tepish, ustunlar orasidan to'pni tez sur'atda olib yurish, to'pni aniq uzatish, jonglyorlik mashqlari va  $10 \times 10$  "konvert" usulida to'p bilan yugurish aynan yosh futbolchilarning texnik-taktik tayyorgarlik holatini baholash imkonini beradi. Dastlabki nazorat testlari bo'yicha barcha futbol maktab shug'ullanuvchilari ko'rsatgan natijalari bir xilda bo'lgan. Asosiy tadqiqot guruhida (murabbiy Raxmatov Sh.N.) yosh futbolchilarning o'quv mashg'ulot jarayonidagi umumiyligi tayyorgarlik, maxsus tayyorgarlik va musobaqa davrlariga mos ishlab chiqilgan texnik – taktik tayyorgarlik metodikasi qo'llanildi. Maxsus ishlab chiqilgan o'quv rejaga muvofiq 30 dan ortiq texnik-taktik mashqlar metodikasining samaradorligi tajribaviy usul bilan tekshirildi. 13 – 14 yoshli futbolchilarning texnik-taktik tayyorgarlik metodikasi samaradorligini tekshirish vositasi sifatida nazorat mashqlardan tashqari, o'quv yili davomida Respublika va viloyat miqiyosidagi bolalar ligasining birinchi va ikkinchi davralarida o'tkazilgan rasmiy musobaqalarda o'yinchilar (tajriba va nazorat guruhlari) amalga oshirgan texnik-taktik harakatlari qiyosiy baholandi. Pedagogik tajriba yakunida olingan barcha ahamiyatli ko'rsatkichlar (nazorat mashq, o'yin jarayonida texnik-taktik harakatlar sifati) tajriba guruhi o'yinchilarida (nazorat guruhiga nisbatan) yuqoriligi qayd etildi.

### **2.2.5. Matematik hisoblash**

Tadqiq etilgan har bir o'zgaruvchi uchun o'rtacha arifmetik qiymat va proporstiya usulida foiz % o'sish hisoblandi. Ikkita o'rtacha arifmetik qiymatlar o'rtasidagi farq to'g'risidagi gipotezani tekshirish uchun parametrik va noperametrik mezonlar qo'llanildi. O'zgaruvchi kattaliklar orasidagi bog'liqlikning zichligini o'rganishda o'rtacha qiymat  $x$  – o'rtacha qiymat va proporstiya usulida ko'rsatkichlarning o'sish foizi aniqlandi.

### **III BOB. YOSH FUTBOLCHILARNING TEXNIK-TAKTIK TAYYORGARLIK FAOLIYATI SAMARADORLIGI**

#### **3.1. Yosh futbolchilarda texnik-taktik harakatlanishlarning strukturaviy tahlili**

Ixtisoslashgan bolalar va o'smirlar olimpiya zaxiralari sport maktabining futbol bo'yicha "boshlang'ich tayyorgarlik" guruhida o'tkazilgan ilmiy tadqiqot ishlarida, rasmiy va norasmiy musobaqa faoliyatini qayd etish haqida ahamiyatli ma'lumotlar yig'ishga imkon berdi. Futbol o'yinlarida o'yinchilarning musobaqa faoliyatini o'rganish orqali olinadigan barcha ma'lumotlar, yosh futbolchilar tayyorgarlik jarayonini pedagogik to'g'ri tashkillashga imkon beradi.

Futbol mutaxassislari yosh o'spirin futbolchilar musobaqa faoliyatini o'rghanishganda, texnik-taktik harakatlarning ko'pgina miqdoriy-sifat o'lchamlari borasida mohir futbolchilar ishonchli ustunlikka ega ekanliklarini aniqladi. Texnik-taktik harakatlarni bajarish ishonchliligi malakali futbolchilarda – 70%, yoshlarda – 52%. Bu yosh futbolchilar texnik-taktik tayyorgarlik darajasini past deb baholashga asos bo'ladi. Bunda bolalar-o'smirlar futboli rivojiga to'siq bo'layotgan ob'ektiv va sub'ektiv xususiyatlari shart-sharoitlarning butun bir majmuasi ajratib ko'rsatiladi.

Olingan natijalar yosh futbolchilarning sport natijalariga erishuvida jismoniy tayyorgarlik va jismoniy rivojlanishni tashkil etuvchi sifatlar etakchi ahamiyatga ega ekanligidan, texnik-taktik imkoniyatlar esa sport natijasiga hal etuvchi ta'sir ko'rsata olmasligidan dalolat beradi.

Musobaqalar o'tkazishning ko'rib chiqilgan shartlari yosh futbolchilarning imkoniyatlariga to'la javob bermaydi. Bunday sharoitda o'yinlar qattiq tezkorlik-kuch xususiyatlariga ega bo'lib, ularda uzoq masofaga adressiz uzatishlar va yakkama-yakka kurashlar ko'payib ketadi, bu erta etilgan, ya'ni texnik-taktik jihatdan yutqizsa ham yaxshiroq jismoniy rivojlanish hisobiga ustunlikka ega bo'lgan o'g'il bolalardan foydalanishni taqozo etadi.

Musobaqa o'tkazish shartlariga kiritilgan tahrirlardan so'ng yakkama-yakka kurashlar miqdorining 18,7 ta usulgacha ishonchli kamayishi yuz berdi. Uzoq masofaga uzatishlar miqdori birmuncha kamaydi, qisqa va o'rta masofaga uzatishlar soni esa ortdi. Aldab o'tish hamda to'pni olib qo'yish kabi texnik-taktik harakatlarning 1,5 barobardan ortiqroqqa keskin ko'payishi alohida kuchli o'yinchilar qiymati oshishiga olib keladi hamda ulardan o'yinda unumli foydalanishni ko'zda tutadi, bu esa sport natijasida ham aks etadi. SHu tariqa golli vaziyatlar miqdori 82,5% ga oshadi.

Funkstional holatni aniqlash, jismoniy sifatlar va texnik tayyorgarlikni rivojlantirish maqsadida 15-17 yoshli futbolchilar ustida tadqiqotlar o'tkazildi.

Musobaqa faoliyati tahlilining ko'rsatishicha, Buxoro shahar sport maktabining 15-17 yoshli futbolchilari bir o'yinda o'rtacha 415-512 ta texnik-taktik harakatni bajarishadi, xatolar esa 38-40%. Agar qisqa uzatishlar hisobga olinmasa, u holda 324-380 texnik-taktik harakat va 41-43% xato, ya'ni yosh futbolchilar qisqa uzatishlarni ko'proq qo'llaydilar.

Bu yoshda o'yinda texnik-usullarni ko'proq qo'llash xususiyati qayd etiladi:

- himoyachilar – qisqa va o'rta masofaga to'p uzatishlar, to'pni olib qo'yish, bosh bilan o'ynash, to'pni yo'l-yo'lakay tutib qolish, uzoq masofaga uzatishlarni eng yuqori – 47-51% xatolar bilan, to'pni olib qo'yishni – 33-35%, bosh bilan o'ynashni – 34-47%, aldab o'tishni – 31-39% xato bilan bajarishi aniqlandi;

- yarim himoyachilar – qisqa, o'rta, uzoq masofaga to'p uzatishlar, to'pni olib yurish va raqibni aldab o'tish, uzoq masofaga uzatishlarni bajarish vaqtida xatolar foizining eng yuqori darajasi – 47-48%, aldab o'tishda – 36-37%, bosh bilan o'ynashda – 36-40%, darvozaga zarba berishda – 47-51% bilan bajarishi aniqlandi;

- hujumchilar – qisqa va o'rta masofaga to'p uzatishlar, darvozaga zarba berish, uzoq masofaga to'p uzatishlarni bajarishda xatolar foizi – 46-47%,

darvozaga zarba berishda – 53-66%, to’pni olib qo’yishda – 34-41%. To’pni olib yurish va aldab o’tishdan kamroq foydalanishlari ma’lum bo’ldi.

O’yinchilarning musobaqadagi texnik harakatlarini tadqiq etish bu murakkab sharoitda yosh futbolchilar turli texnik usullarni aniq va tez bajara olmasliklarini ko’rsatdi. Bu yosh futbolchilarning mashg’ulot va musobaqa faoliyati orasidagi nomuvofiqlik natijasidir.

Malakali va yosh futbolchilarning to’p bilan bajariladigan alohida taktik harakatlarini tahlil etish natijasida asosiy taktik harakat – to’p uzatish malakali himoyachilarga qaraganda yoshlarda kamroq hajmni egallashi ma’lum bo’ldi. Qanot himoyachilarida qisqa uzatishlar yuqori malakali himoyachilarnikiga qaraganda 21,6% ga, markaziy himoyachilarda esa 28,6% ga kamroq.

Yosh futbolchilar o’rta va uzoq masofaga to’p uzatishlardan foydalanadilar. SHuni qayd etish mumkinki, ular bunday uzatishlarni hujum boshlash zonasida adressiz to’pni olib qo’yish chog’ida asossiz qo’llaydilar. To’pni olib qo’yib hujumni davom ettirish bir xil solishtirma hajmga ega (12,6%). Yarim himoyachilarda to’p uzatishning usullar zahirasidagi solishtirma hajmi eng yuqoridir.

Yosh yarim himoyachilar uzoq (16,5% ga) va o’rta masofaga to’p uzatishlarni malakali futbolchilarga qaraganda ko’proq, qisqa uzatishlarni esa, aksincha, kamroq (20,2% ga) qo’llaydilar. To’pni olib qo’yib hujumni davom ettirishda malakali futbolchi – yarim himoyachilar ancha faol, chunki ular to’pni olib qo’yishni hujum harakatlarini davom ettirish zonasida amalga oshiradilar. Raqibni aldab o’tishni yosh futbolchilar – yarim himoyachilar malakali sportchilarga nisbatan ko’proq qo’llaydilar. Ta’kidlash zarurki, yosh futbolchilar hujum harakatlarini davom ettirish zonasida raqibni aldab o’tishdan tez-tez va ko’pincha asossiz foydalanadilar.

Turli malakaga ega bo’lgan jamoalarning hujumchilari ko’proq to’p uzatishlarni qo’llaydilar: yoshlarda u taktik harakatlar umumiyligi miqdorining 60,5 dan 71,7 gacha foizini, yuqori malakali o’yinchilarda esa 73-77,9% ini tashkil etadi. Raqibni aldab o’tishni yosh qanot hujumchilari katta yoshlilarga nisbatan

ancha ko'p qo'llaydilar, markaz hujumchilarida uning solishtirma hajmi kattalarnikidek .

Taktik harakatlardan foydalanishning maqsadga muvofiq-ligi hamda solishtirma hajmi to'g'risidagi ma'lumotlarni tahlil qilish natijasida o'quv materialini takomillashtirish va oqilona qo'llash maqsadida ularning mazmuni aniqlandi:

1) hujumni boshlash va rivojlantirish zonasida qisqa, o'rta, uzoq masofaga uzatishlar hamda himoyachilar va yarim himoyachilardan to'pni olib qo'yib, hujumni davom ettirish;

2) hujumni rivojlantirish va yakunlash zonasida yarim himoyachilar va hujumchilar oldida raqibni aldab o'tish;

3) hujumni rivojlantirish hamda yakunlash zonasida hujumni yakunlab, darvozaga zarba berish va yarim himoyachilar va hujumchilar oldida to'p uzatish.

Sport o'yinlarida oqilona boshqaruvchi harakatlarni tashkil etish uchun dastlab faoliyatning belgilovchi turini – ushbu holatda musobaqalashuv turini tahlil etib olish zarur.

Tadqiqot davomida sportchilarning oddiy sharoitdagi hamda hissiy va psixik zo'riqish darajasi ortgan paytdagi faoliyati samaradorligi bo'yicha qo'lga kiritilgan ma'lumotlarni taqqoslaganda, yosh futbolchilar faoliyatiga ishonchlilik talablariga muvofiq etarlicha xolis baho berish mumkin.

Sportchilarning musobaqa faoliyati ko'rsatkichlari qiymati ekstremal sharoitlarda ancha pasayadi. Bu, eng avvalo, texnik-taktik harakatlarni bajarish aniqligiga taalluqli. Bunday sharoitda umumiyligi aniqlik, hujum va mudofaa harakatlari aniqligi ko'rsatkichlari pasayadi, o'yinchilarning jamoa samaradorligi koeffisientiga qo'shgan alohida hissasi kamayadi, shuningdek, tashabbusni amalga oshirish samaradorligi ham pasayadi.

Ekstremal sharoitlarda yosh futbolchilarning o'yin faolligi ko'rsatkichi ancha past bo'ladi hamda turli texnik-taktik harakatlarning umumiyligi hajmidagi

nisbati o'zgaradi. Mudofaa yo'nalishidagi harakatlar miqdori ortib, hujum harakatlari kamayadi.

O'tkazilgan tadqiqiy ma'lumotlarga ko'ra, yosh futbolchilarning musobaqa faoliyatlarini korrelyastion tahlili yoshlari futbolining samaradorligi va ishonchliligi tarkibini aniqlashga imkon beradi [45].

1. Yosh futbolchilar faoliyati samaradorligi yuqori hujum faolligi hamda hujum va himoya harakatlarining aniqligini uyg'unlashtirish orqali ta'minlanadi. Faoliyatning eng muhim xususiyatlari umumiyligi, tashabbus, himoya faolligi ko'rsatkichlari sanaladi. Ular yordamida muayyan yoshlari jamoalarining samaradorligi darajasiga qiyosiy baho berish, shuningdek, alohida o'yinchilarning jamoa faoliyati samaradorligiga qo'shgan hissasini baholash mumkin.

2. Musobaqa faoliyati ishonchliligi: hujum harakatlari yuksak darajadagi faolligi hamda aniqligi, mudofaa faolligining eng maqbul darajadagi ifodaliligi, mudofaa harakatlarining aniqligi yordamida ta'minlanadi. Ekstremal sharoitlardagi faoliyatni tashkil qilishda xatoliklar va tashabbus ko'rsatkichlari jiddiy ahamiyatga ega.

3. Yosh futbolchilar musobaqa faoliyati va shaxsiy xususiyatlari tahlili aniqlikning turli xillari bilan tavsiflanuvchi uch guruhni farqlab ko'rsatishga imkon beradi: samarali, ishonchsiz, samarasiz-ishonchsiz. Tayyorgarlikning aniqlangan turlarini qayd etish o'yinchilar texnik-taktik tayyorgarligini individuallashtirishga ko'maklashadi.

Yosh futbolchilar tayyorgarligi tizimining eng muhim elementlaridan biri majmuali nazoratdir.

Pedagogik kuzatuv ma'lumotlarini o'rganish natijasida ayon bo'ldiki, kichik yoshli maktab o'quvchilari tashkil etgan o'yinlar bir vaqtida ishtirok etuvchilar miqdori kam bo'lgan sharoitda, kichik o'yin maydonchalarida o'tkaziladi. Bir vaqtida ishtirok etuvchilar soni ikki kishidan o'n kishigacha bo'lishi mumkin. Ularning soniga qarab maydonchalarning o'lchami (*m*): 10x5; 10x10; 15x15; 20x15; 30x20; 40x30 ni tashkil etadi.

Qayd etilishicha, maktab futbol to'garagi yosh futbolchilari quyidagi texnik usullarni eng ko'p qo'llaydilar: to'jni oyoq uchi, oyoq yuzasi bilan olib yurish; oyoqning uchi va oyoq yuzasining ichki tomoni bilan harakatsiz yoki dumalab ketayotgan to'pga zarba berish; to'jni tepib yoki oldinga katta qadam tashlab olib qo'yish.

Ayni vaqtida katta yoshli futbolchilar orasida eng ko'p tarqalgan oyoq kaftining tashqi tomoni bilan zarba berish bu yoshda deyarli qo'llanilmasligiga e'tibor qilindi.

Kichik yoshdagi maktab o'quvchilari yosh xususiyatlaridan kelib chiqib:

- belgilangan o'lchamli futbol maydonida umum qabul qilingan tarkibda ikki tomonlama o'yinlarni o'tkazmaslik;
- o'rgatishni oyoq uchi va yuzasida to'jni to'g'ri chiziq bo'ylab olib yurishdan boshlash maqsadga muvofiqdir.

O'yinchilarning texnik-taktik harakatlarini yozib borish natijalarini statistik jihatdan ishlangan murabbiy yana ham ishonchli ma'lumotlarni qo'lga kiritadi. To'jni egallagan o'yinchilarning harakatlarini qayd etish mamlakatimiz va chet el sportchilarining texnik-taktik harakatlari haqida juda keng material to'plashga imkon berdi. Ayni vaqtida yosh futbolchilar, jumladan, malakali jamoalarning eng yaqin zahiralari (16-18 yosh) to'g'risida deyarli hech qanday axborot yo'q.

R.A. Akramovning fikricha, futbol musobaqlarda to'p bilan 500 harakat bajarishni texnik-taktik harakatlar modelining quyi chegarasi deb hisoblash mumkin. Bunda texnik-taktik harakatlar va o'yin natijasi orasida muayyan bog'liqlik mavjudligi ko'zga tashlanadi [5].

Bu yoshdagi futbolchilar texnik-taktik harakatlarining tahlili ular uzoq masofaga uzatishlarni, to'jni olib qo'yish va yo'l-yo'lakay tutib qolish, bosh bilan o'ynash va darvozaga zarba berish kabi usullarni bajarishda ko'proq xato qilishlaridan dalolat beradi. 2015 yildagi futbol bo'yicha Buxoro shahar birinchiligi musobaqasida IBO'OZSM yosh futbolchilari uzoq masofaga to'p uzatishlarda yo'l qo'ygan xatolari o'rtacha ko'rsatkichi – 72%. Uzoq masofaga to'p uzatishlarni qo'llashning 2 ta o'ziga xos xususiyati bor:

- birinchidan, uzoq masofaga to’p uzatishlarni hujum chizig’iga tezroq etkazmoqchi bo’lgan himoyachilar hamadan ko’p qo’llaydilar. Lekin ularning to’p uzatishlari, odatda, uzunasiga bajarilib, raqib tomonidan tutib qolinadi;

- ikkinchidan, bunday uzatishlarda to’p juda yuqori traektoriya bo’ylab uchadi, zarur zonaga etib borganda esa, raqibning himoya chizig’i qayta tashkillanib, hujum ostidagi darvoza yaqinida xavfli hududlarni yopishga ulguradi.

To’pni olib yurish va aldab o’tish vaqtida yosh futbolchilarning xatolari ko’rsatkichlari taxminan yuqori malakali o’yinchilarnikidek, lekin yoshlarda to’pni olib yurishda bu ko’rsatkichlar tebranib turadi.

To’pni olib qo’yishda yoshlarning xatolari qiymati – 50%, to’pni yo’l-yo’lakay tutib qolishda – 45%. Bosh bilan o’ynash va darvozaga zarba berish (ayniqsa, yakkama-yakka kurashlarda) mamlakatimiz futbolchilari an’anaviy ravishda chet elliklarga yon beradigan usullardir.

Shunday qilib, yosh futbolchilar va yuqori malakali jamoalarning o’yinchilari texnik-taktik harakatlari idagi aniqlik ko’rsatkichlarini taqqoslashda salbiy narsa ko’zga tashlanadi: bolalik davrida ko’p xatolar bilan bajarilgan usullar malakali sportchilarning o’yinida ham musobaqa faoliyati muvaffaqiyatini cheklovchi tarkibiy qismligicha qoladi.

Yosh futbolchilar texnik-taktik harakatlari tuzilishini o’zgartirish bir qator xususiyatlarga ega. Agar to’pni o’rtacha masofaga uzatish texnik-taktik harakatlar umumiyligi miqdorining 4-6% ini, uzoq masofaga uzatishlar 9-14% ini tashkil etsa, qisqa uzatishlar miqdori 21% dan 43% gacha bo’lgan oraliqda bo’ladi. Evropaning eng yaxshi terma jamoalarida qisqa uzatishlar barcha texnik-taktik harakatlarning 18-28% ini, o’rta masofaga uzatishlar 13-18% ni, uzoq masofaga uzatishlar 8-11% ni tashkil qiladi.

Yosh futbolchilarda to’pni olib yurish, aldab o’tish, to’pni olib qo’yish, yuqorida yakkama-yakka kurashish singari usullar dinamikasida mo’tadil variantlilik qayd etiladi. Biroq har bir jamoa uchun mazkur texnik-taktik

harakatlarning eng maqbul nisbati mavjud bo'lib, u jamoa imkoniyatlarining amalga oshirilishi hamda zarur natijaga erishishini ta'minlaydi.

Yosh futbolchilarning koordinastion qobiliyatları, chaqqonligi o'yinning texnik elementlarini muvaffaqiyatli egallashga asoslanadigan poydevordir. Zamonaviy futbol sharoitida to'pni tezkorlik bilan olib yurish va raqibni aldab o'tishni bajarish vaqtida bu sifatlarning ahamiyati yaqqol namoyon bo'ladi.

10-16 yoshli futbolchilarning o'yinda to'pni olib yurish va aldab o'tishlarini kuzatish texnik-taktik harakatlar ko'rsatkichlarining miqdoriy va sifat xususiyatlaridagi yosh dinamikasini yuzaga chiqardi.

Yosh futbolchilarda 10 dan 16 yoshgacha bo'lgan davrda bir o'zin davomida to'pni olib yurishlar miqdori deyarli ikki barobar ortadi bunda uning samaradorligi ham ancha o'sadi. Xatolar miqdorining esa chegaralari ancha keng bo'lib, bu boshqa tadqiqotlardan olingan ma'lumotlarga zid emas. Yosh futbolchilarda o'zin chog'ida raqibni aldab o'tish 9 dan 13 yoshgacha ortib borib, keyin ancha kamayadi. Bunda 11-13 yoshli futbolchilar ko'pincha bitta emas, balki ketma-ket ikki-uch raqibni aldab o'tishga kirishadilar.

Aldab o'tish samaradorligining eng yuqori ko'rsatkichlari 14-15 yoshli futbolchilarda qayd etildi. 16 yoshli futbolchilarda ham bir va ikki raqibni aldab o'tishda bu usul samaradorligining etarlicha yuqori ko'rsatkichlari aniqlandi. Olingan ma'lumotlardan kelib chiqib, shunday xulosa qilish mumkin: to'pni olib yurish va aldab o'tish usulining to'pga egalik qilish texnikasidagi ancha yuqori darajasiga erishishni yosh futbolchilardan tayyorgarlikning dastlabki bosqichlaridayoq talab qilish zarur.

Ilgariroq o'tkazilgan tadqiqotlar natijalarining tahlilidan kelib chiqadiki, bir o'yindagi texnik-taktik harakatlarning umumiyligi miqdori faqat 8-9 yoshli va 14-15 yoshli futbolchilarda statistik jihatdan ishonchli farq qiladi [19,21,22].

Bunda musobaqa faoliyatining alohida tarkibiy qismlari bo'yicha miqdoriy ko'rsatkichlar yoshdan yoshga jiddiy o'zgarishlarga uchraydi. Bunday elementlarga uzoq masofaga uzatishlar va shiddatli uzatishlar, to'pni olib yurish

va aldab o'tish (yuqorida ta'kidlanganidek, kamayib borish tartibida), to'pni yo'l-yo'lakay tutib qolish, bosh bilan o'ynash kiradi.

O'yin elementlaridan darvozaga zarba berish elementi ustida alohida to'xtash lozim. YOsh futbolchilarning ko'rib chiqilayotgan barcha yosh guruhlarida mazkur texnik priyom musobaqa faoliyatida texnik-taktik harakatlar umumiy miqdorining ko'pi bilan 5% ini tashkil etadi. Bu o'quv-mashq jarayonida darvozaga zarba berishga u qadar ahamiyat bermasa ham bo'ladi, degani emas. Shuni yodda tutish kerakki, musobaqa faoliyati tizimini shunga o'xshash tarzda qurish yuqori malakali futbolchilarga ham xos.

Musobaqa faoliyati xususiyatlarini o'rganish yosh futbolchilar tayyorgarligining deyarli o'rganilmagan jihatlarini aniqlash imkonini beradi. Bu sohadagi yangi ma'lumotlar yosh sportchilarni tayyorlash jarayonini optimallashtirish hamda mamlakat terma jamoasiga malakali zahira tarbiyalab berish uchun imkoniyat yaratadi.

### **3.2. Yosh futbolchilarning musobaqa faoliyatidagi texnik harakatlanishlar nazorati**

Yosh futbolchilarning musobaqa faoliyati kuzatilganda, ular o'yin davomida o'rtacha 440-480 ta texnik-taktik harakatlarni amalaga oshirishadi. Futbolchilarni barcha texnik-taktik harakatlarini yarmidan ko'proq qismini turli to'p uzatishlar tashkil qilgan.

Kuzatishlardan ma'lum bo'ldiki, yosh futbolchilar raqibni aldab o'tish texnik harakatni, bosh bilan o'ynash texnik harakatni bajarishda ko'p marotaba nuqsonlarga yo'l qo'yadilar.

2-jadvalda IBO'OZSM tarbiyalanuvchilarining maydondagi individual texnik-taktik harakatlari ko'rsatilgan. Jadvalga ko'ra, to'pni uzatish:

- himoyachilarda 17 martadan 32 % xato;
- yarim himoyachilarda 18 martadan 38 % xato;
- hujumchilarda 10 martadan 37% xatolikka yo'l qo'yilgan.

2-jadval

**13-14 yosh futbolchilarning o'yindagi individual texnik-taktik harakatlanish ko'rsatkichlar**

Texnik-taktik harakatlar	Himoyachilar		YArim himoyachilar		Hujumchilar	
	Marta bajarish	Xatolar, %	Marta bajarish	Xatolar, %	Marta bajarish	Xatolar, %
1. To'pni uzatish	17	32	18	38	10	37
2. To'pni olib qo'yish	11	38	13	50	17	41
3. Raqibni aldab o'tish	13	40	14	43	13	41
4. Bosh bilan o'ynash	7	50	6	40	6	32
5. YOn chiziqdan to'p tashlash	12	35	4	15	-	-
6. Darvozaga zarba	0	-	2	50	4	60

To'pni olib qo'yish harakatida:

- himoyachilarda 11 martadan 38 % xato;
- yarim himochilarda 13 martadan 50 % xato;
- hujumchilarda 17 martadan 41% xatolikka yo'l qo'yilgan.

Raqibni aldab o'tish harakatida:

- himoyachilarda 13 martadan 40 % xato;
- yarim himochilarda 14 martadan 43 % xato;
- hujumchilarda 13 martadan 41% xatolikka yo'l qo'yilgan.

Bosh bilan o'ynash harakatida:

- himoyachilarda 7 martadan 51 % xato;
- yarim himochilarda 6 martadan 40 % xato;
- hujumchilarda 6 martadan 32% xatolikka yo'l qo'yilgan.

Yon chiziqdan to'pni tashlash harakatida:

- himoyachilarda 12 martadan 35 % xato;
- yarim himochilarda 4 martadan 15 % xato;

Darvoza tomon berilgan zARBalar harakatida:

- yarim himochilarda 2 martadan 50 % xato;
- hujumchilarda 4 martadan 60 % xatolikka yo'l qo'yilgan.

Hattoki, himoyachilar ham aldash harakatlarini o'z jarima maydonlarida ko'p marotaba amalga oshirganligini ko'rish mumkin. Yon chiziqdan to'p tashlashda ham asosan himoyachilar foydalanishganligi, boshqa chiziq futbolchilari kam hollarda yon chiziqdan to'p tashlashgan.

Himoyachilar uzoq masofaga to'p uzatishlarni eng ko'p xatolar 32% bilan, to'pni olib qo'yish -38%, bosh bilan o'ynash 50%, aldab o'tishni 40% xato bilan bajarishda.

Yarim himoyachilar uzoq masofalarga uzatishlarni bajarish vaqtida xatolar foizining eng yuqori darajasi 37-38 % ni tashkil etdi, aldab o'tish 44 %bosh bilan o'ynash 36-40 %, darvozaga zarba berish 50 %ga teng bo'ldi.

Hujumchilarda esa uzoq masofaga to’p uzatishlar – 46-47% xatolar bilan ijro etildi, darvozaga zarba berish – 53-66%, to’pni olib qo’yish – 34-41% darajasida bo’ldi. To’pni olib yurish va aldab o’tish harakatlaridan kamroq foydalanishdi. Binobarin, qayd etilgan ko’rsatkichlar yosh futbolchilarni o’yin davomida turli texnik usullarni aniq va tez bajara olmasliklarini ko’rsatdi. Bu holat yosh futbolchilar mashg’ulotining mazmun va yo’nalishi maqsadga muvofiq tashkil qilinmasligidan darak beradi. Tekshiruv ma’lumotlariga ko’ra BO’SM internati tarbiyalanuvchilarida texnik-taktik harakatlarining 38-40% samarasiz ekanligi aniqlandi. Pedagogik kuzatishlarimizdan yana shu narsa malum bo’ldiki, 13-14 yoshli futbolchilar o’yinda birinchi bo’limga qaraganda ikkinchi bo’limda texnik xatolarga ko’proq yo’l qo’yishadi. Murabbiylarning e’tiroficha bunga asosiy sabab, yosh futbolchilarning jismoniy tayoyrgarligining etarli darajada rivojlanmaganligidandir.

IBO’OZSM va BO’SM internat tasarrufidagi boshlang’ich tayyorgarlik guruhlari futbolchilarining tajribadan oldingi va keyingi kuzatilgan o’yin jarayonida jamoalarning o’rtacha (X) darvoza tomon berilgan zARBalar natijaviylici, ya’ni samaradorlik koeffistientlari (%) aniqlandi (3-4 jadval).

Tajribadan oldingi tahlilga ko’ra tadqiqot guruhiga nisbatan, nazorat guruhida jami zARBalar (bosh bilan, oyoqda, jarima maydon ichida va tashqarisida) soni va samaradorlik koeffistienti (%) bo’yicha qiymatlar-aro keskin bo’lmasa-da ustunligi qayd etildi (3 jadval).

**Boshlang'ich tayyorgarlik guruhi o'yinchilarining o'yin davomida o'rtacha darvoza tomon berilgan zARBALAR natijaviyligi  
(tajribadan oldingi)**

№	O'yin harakatlarining ko'rinishi	Tadqiqot guruhi jamoasi (IBO'OXSM)			Nazorat guruhi jamoasi (BO'SMI)		
		1 taym	2 taym	Jami o'yin davomi da	1 taym	2 taym	Jami o'yin davom ida
1	Bosh bilan berilgan zARBALAR (marta)	1	1	2	2	0	2
2	Oyoqda berilgan zARBALAR (marta)	3	2	5	4	3	7
3	Jarima maydoni ichida (marta)	2	1	3	1	2	3
4	Jarima maydoni tashqarisida (marta)	1	1	2	1	1	2
5	ZARBALAR soni (X)	7	5	12	8	6	14
6	Samaradorlik koeffistienti (%)	0,38	0,42	0,40	0,38	0,44	0,41

Tadqiqot va nazorat guruhi jamoalarining tajribadan keyingi rasmiy o'yin davomida darvoza tomon berilgan zARBALAR natijaviyligi, ushbu o'yinchlarning tayyorgarlik jarayonida qo'llanilgan metodika ta'sirida boshqacha qiymatlarni keltirib chiqardi (4 jadval).

Tajribadan keyin kuzatilgan va natijaviyligi tahlil etilgan zARBALAR:

1. Tadqiqot guruhida jami zARBALAR (bosh bilan, oyoqda, jarima maydon ichida, jarima maydon tashqarisida) soni 17 marta bo'lib, samaradorlik koeffistienti 0,56 % ni tashkil etdi.

2. Nazorat guruhida jami zARBALAR (bosh bilan, oyoqda, jarima maydon ichida, jarima maydon tashqarisida) soni 15 marta bo'lib, samaradorlik koeffistienti 0,44 % ni tashkil etdi.

**Boshlang'ich tayyorgarlik guruhi o'yinchilarining o'rtacha o'yin davomida  
darvoza tomon berilgan zARBALAR natijaviyligi  
(tajribadan keyingi)**

№	O'yin harakatlarining ko'rinishi	Tadqiqot guruhi jamoasi (IBO'OZSM)			Nazorat guruhi jamoasi (BO'SMI)		
		1 taym	2 taym	Jami o'yin davomida	1 taym	2 taym	Jami o'yin davomida
1	Bosh bilan berilgan zARBALAR (marta)	2	1	3	2	1	3
2	Oyoqda berilgan zARBALAR (marta)	6	4	10	3	1	4
3	Jarima maydoni ichida (marta)	2	1	3	2	1	3
4	Jarima maydoni tashqarisida (marta)	0	1	1	2	1	3
5	ZARBALAR soni (X)	10	7	17	2	0	2
6	Samaradorlik koeffistienti (%)	0,54	0,58	0,56	0,40	0,48	0,44

3. Qiyosiy farqlanish quyidagicha, tadqiqot guruhida jami zARBALAR sonida 2 marta, samaradorlik koeffistienti bo'yicha 14 % ga ijobiy ustunlikka erishildi.

### **3.3. YOsh futbolchilarining xujum faoliyatidagi xarakatlanishlar tahlili**

Tadqiqot davomida IBO'OZSM va BO'SM internatning boshlang'ich tayyorgarlik guruhi yosh futbolchilarining o'yin davomida xujumni tashkillashtirish samaradorligi o'rganildi. Yosh futbolchilarining xujumdagagi xarakatlari o'rganilganda, ular o'yinda o'rtacha 60-70 ta xujumlarni tashkil etishadi va bu xujumlarning 10-15 xavfli ko'rinishga ega bo'ldi.

Buxoro shaxar birinchiligi o'yinlari kuzatilganda, BO'OZSM jamoasi asosiy xujumlarni qanotdan amalga oshirishgan. Ko'pgina xollarda bu xujumlar samarali bajarilib, gol bilan yakunlangan.

4-jadvalda BO’OZSM futbolchilarining BO’SMI jamoalari bilan uchrashuvdagi qanotdan, markazdan uyushtirilgan xujumlari ko’rsatilgan. Bu uchrashuvlarda xam «BO’OZSM» jamoasining asosiy xujumlari qanotdan uyushtirilgan va ular samarali yakunlangan. qanotdan uyushtirilgan xujumlar, qanotdan boshlangan, qanotdan jarima maydoniga jamoadoshiga to’pni to’g’ri etkazib berilgani va jamoadoshi tomondan darvoza boshi, oyog’da to’g’ri yo’naltirilgan zARBALARI, samarali xujum sifatida yakun topgan.

Tadqiqot va nazorat guruhlari o’yinchilarining xujum uyushtirish faoliyati 2016 yilda o’tkazilgan rasmiy musobaqalardan birida maxsus tuzilgan bayonnomaga asosida kuzatib tahlil qilindi, ya’ni darvoza tomon bergen zARBALARNING samaradorlik foizi aniqlandi ( 5 jadval).

Kuzatishlardan ma’lum bo’ldiki, tajriba guruhida (IBO’OZSM) qanotdan amalga oshirilgan hujumlar soni 7 martaga, samaradorlik 24 % ga oshgan. Markazdan oshirilgan hujumlar soni ham 7 martaga, samaradorlik 27 % ni tashkil etdi. BO’SM internat tarbiyalanuvchilaridan tarkib topgan nazorat guruhida qanotdan amalga oshirilgan hujumlar soni 5 martaga, samaradorlik 5 % ga oshgan.

Markazdan oshirilgan hujumlar soni va sifati bo’yicha ham 6 martaga, samaradorlik 9 % ni tashkil etdi. 2016 yildagi qiyosiy tahlilga ko’ra, tajriba guruhida nazorat guruhiga nisbatan qanotdan amalga oshirilgan hujumlar soni 5 martaga, samaradorlik 14 %, markazdan oshirilgan hujumlar soni 3 martaga, samaradorlik 27 % miqdorida ijobiy farqlanish kuzatildi.

Futbolda barcha texnik harakatlarni takomillashtirish bilan birgalikda, darvoza tomon zarba berish texnikasini ham takomillashtirib borish zarur. CHunki darvoza tomon zarba beriladigan zARBALARDAN o’yinning yakuniy natijasiga zamin yaratilishi mumkin. Hozirgi zamонави futbol bilan o’tmishtagi futbol o’rtasida juda keskin farqlanishlar mayjud.

**Boshlang'ich tayyorgarlik guruhi jamoalarida xujumni tashkillashtirish  
samaradorligi**

Xujum ko'rinishi		Boshlang'ich tayyorgarlik guruhi jamoalari (13 – 14 yosh)						
		Tajriba guruhi (IBO'OZSM)		Nazorat guruhi (BO'SMI)		Guruhdagi o'zgarish	Guruhlar aro farq 2016 yanvarb	
Q A N O T	Xujum soni (marta)	2015 yanvarb	2016 yanvarb	2015 yanvarb	2016 yanvarb		5	> 5
	Samarador lik %	50	74	24	55	60	5	> 14 %
M A R K A Z	Xujum soni (marta)	26	33	7	24	30	6	> 3
	Samarador lik %	35	62	27	30	39	9	> 27 %

Barcha texnik harakatlarni hajm va sifat ko'rsatkichlari oldingiga nisbatan keskin o'zgargan.

Yakunlovchi zarbani berishda ham bir qancha omilllar ahamiyatli hisoblanadi. Zarbani kuchi oyoq kuchini rivojlanganliginga bog'liq bo'ladi. Bosh bilan zarba berishda, sakrovchanlik qobiliyati muhim ahamiyatga ega. Futbolchilarni sakrovchanligini aniqlash uchun yuqorida aytib o'tilgan usuldan foydalangan holda

bilish mumukin. So'ngi omil, bu zarbalarni aniq bajarilashi bilan xarakterlanadi. Buning uchun futbolchini texnik mahorati takomillashgan bo'lishi kerak.

### **3.4. Texnik – taktik o'quv - mashg'ulotlar samaradorligining asoslanishi**

Sport maktablarining mashg'ulotlarni kuzatish o'quv-ish rejalarida soatlardan, yosh futbolchilarni texnik tayyorgarligiga keng doirada ahamiyat beriladi.

Futbol sport maktablarining 10-11 yoshli dastlabki tayyorlov shug'ullanuvchilariga yillik ish reja bo'yicha umumiy jismoniy tayyorgarlikka 60 soat, maxsus jismoniy tayyorgarlikka 30 soat vaqt ko'lami ajratiladi. Dastlabki tayyorlov davrida shug'ullanuvchilarga texnik harakatlarni rivojlantirishga ko'p soatlar ajratilgan. 10-11 yoshli futbolchilarning mashg'ulotlarida xarakat malakalarini rivojlantirishga ko'proq e'tibor beriladi. Texnik tayyorgarlikning bu vaqtidagi vazifasi avvalo yosh futbolchilarning harakat funkstiyalarnito'pni olib yurish, to'pni his qilish sifatlarni shakllantirishdan iborat. Malakali murabbiylar e'tiroficha, dastlabki tayyorgarlik va boshlang'ich sport ixtisoslashuvi bosqichlarida tezkorlik, chaqqonlik bilan mustahkam bog'liq ravishda tarbiyalanadi, bu esa yosh futbolchilarning rastional texnikasini muvaffaqiyatli egallab olish uchun zarur asos yaratadi.

13-14 yoshli futbolchilarning yillik ish reja bo'yicha mashg'ulotlarda texnik-taktik tayyorgarligiga, 230-250 soatlar ajratilgan. Ushbu yoshda texnik tayyorgarlikning to'pni to'xtatish, aldash xarakatlari, darvozaga zarba berish, sifatlari rivojlantiriladi. Mashg'ulotlarda jismoniy tayyorgarlik texnik harakatlarga bog'liq holda o'tkaziladi.

Yosh futbolchilarning jismoniy tayyorgarligi texnik harakatlarini rivojlantirishda mashg'ulot o'tkazilish samarasi ham muhimdir. Mashg'ulotlarning samaradorligini ko'rsatkichlaridan biri uning zichligidir. Mashg'ulot zichligini bir butun yoki uni qismlarning o'zini alohida aniqlash mumkin. Bu mashg'ulotning

tayyorlov, asosiy, yakunlov qismlarida ishni tashkil qilishni bir xil emasligi bilan bog'liq.

Xar bir mashg'ulot oldiga xuddi mazkur mashg'ulotda hal etish mumkin bo'lган mutlaqo konkret vazifalar qo'yish kerak. O'quv-tarbiya jarayonining umumiylasalalari (kuch, tezkorlik, chaqqonlik, chidamlilikni rivojlantirish, gavda shaklini garmonik rivojlantirish) hal etilishiga alohida konkret vazifalar sistemasini bajarish orqali erishiladi. Tabiiyki, faqat har bir darsni muvaffaqiyatli o'tkazish yo'li bilangina, har bir o'quv mashg'ulotida o'zlashtirilgan mutlaqo aniq natijalar asta-sekin bir-biriga qo'shilib borgandagina maqsadga erishish mumkin.

Mashg'ulotning motor zichligi (MZ) – bu mashg'ulotning umumiyligiga nisbatan yosh futbolchilarining mashg'ulotlarda aynan harakat faoliyatining aktivligi uchun sarflangan sof vaqtidir.

Motor zichlikni aniqlashda mashqlarni bajarish uchun sarflangan sof vaqt ( $t_{sv}$ ) hisoblanadi.  $t_{sv} \times 100\%$  ko'paytirilib, mashg'ulotning umumiyligini vaqtiga ( $t_{um}$ ) bo'linadi.

Tadqiqot davomida BO'OZSM va BO'SMI sport maktablari mashg'ulotlarning motor zichligi tekshirildi. Ushbu mashg'ulotlar (13-15 yoshli futbolchilarda) jismoniy tayyorgarlikka, texnik harakatlarni rivojlantirishga qaratilgan bo'lib, davomiyligi 90 minutga teng bo'lган mashg'ulotlardir.

BO'OZSM-3 sport maktabida olib borilgan mashg'ulotlarning motor zichligi 71,5% ni tashkil etdi.

BO'SMI- sport internatning mashg'ulotlarida motor zichlik 69,8% ni tashkil etdi.

Sport maktablari mashg'ulotlari kuzatilganda, mashg'ulotning motor zichligi 66-70% ni tashkil etdi.

Motor zichlikni ahamiyati muhimligini e'tirof etishimizga qaramay u hech qachon 100% bo'lishi mumkin emas. Aks holda mashg'ulot materialni tushuntirish, sodir bo'ladigan xatolar, ular ustida fikr yuritishga vaqt qolmagan bo'lar edi.

*Futbolchilarning texnik tayyorgarliklari bo'yicha nazoratlar:* Tadqiqot davomida IBO'OZSM-3, BO'SMI sport maktab va internatda 13-14 yosh futbolchilarning texnik tayyorgarlik bo'yicha nazorat testlari o'tkazildi. Nazorat testlariga to'pni mo'ljalga aniq tepish, ustunlar orasidan to'pni tez sur'atda olib yurish,to'pni aniq uzatish, jonglyorlik mashqlari qo'yilgan. Dastlabki nazorat testlari bo'yicha barcha futbol maktab shug'ullanuvchilari ko'rsatgan natijalari bir xilda bo'lgan. Ushbu sport maktablari mashg'ulot o'tish samarasini kuzatganimizda, murabbiylarning texnik-taktik tayyorgarlik bo'yicha mashg'ulotda 5-6 ta mashqlardan foydalanish va bu mashqlar bir xillikda olib borilishi kuzatildi. Yana shu narsa aniqlandiki, murabbiylar mashg'ulotlarda yosh futbolchilarga texnik-taktik harakatlarni o'rgatish, takomilolashtirishda shiddatli tezkorlik bilan bajarilishiga unchalik ham ahamiyat berishmaydi.

Tadqiqot guruhi (BO'OZSM) va nazorat guruhi (BO'SMI) yosh futbolchilarning texnik-taktik harakatlarida rivojlanish dinamikasini nazorat qilish hamda pedagogik tajriba samaradorligini tekshirish uchun maxsus nazorat mashqlari majmuasi ishlab chiqildi, tajribadan oldin va keyin jamoalarda o'tkazildi. Dastlabki (tajribadan oldingi) nazorat testlarni mashg'ulotlarda tezlik bilan bajarilishiga, ya'ni o'yin xolatiga yaqinlashtirilgan xolda bajarilishga ahamiyat berildi (6 jadval).

Tajriba boshida Buxoro shahar ixtisoslashgan bolalar va o'smirlar olimpiya zaxiralari sport maktabi (tadqiqot guruhi) hamda bolalar va o'smirlar sport maktab internatning 13-14 yoshli futbolchilarning texnik-taktik tayyorgarlik darajalarini tekshirish uchun nazorat testlari o'tkazildi.

**Boshlashg'ich tayyorgarlik guruhi jamoalarida o'tkazilgan dastlabki texnik  
test natijalarining qiyosiy tahlili**

Texnik-taktik test talablari	IBO'OZFM va BO"SM internat		
	Tajriba guruhi jamoasi (n = 9)	Nazorat guruhi jamoasi (n = 10)	Qiyosiy samaradorlik
1. 30 metrga to'p bilan yugurish (soniya)	9,7	8,2	< 1,5
2. To'pni belgilangan mo'ljalga aniq tepish (8 marta/imkoniyat)	4,7	3,4	> 1,3
3. Ustunlar orasidan to'pni olib yurish va darvozaga zarba (soniya)	14,1	12,7	< 1,4
4. 30 metrga to'pni aniq uzatish (5 marta /imkoniyat)	2	3	< 1
5. To'p bilan janglyorlik (daqiqqa/marta)	22	27	< 5
6. 10 x 10 konvert usulida to'pni olib yugurish (soniya)	22,7	23,8	> 1,1

Nazorat testlari tarkibida - to'pni mo'ljalga aniq tepish, ustunlar orasidan to'pni tez sur'atda olib yurish, to'pni aniq uzatish, jonglyorlik mashqlari va 10 x 10 "konvert" usulida to'p bilan yugurish aynan yosh futbolchilarning texnik-taktik tayyorgarlik holatini baholash imkonini beradi. Dastlabki nazorat testlari bo'yicha boshlang'ich tayyorgarlik guruhlarida (tajriba va nazorat guruhlarida) qayd etilgan natijalar tahliliga ko'ra, nazorat guruhi shug'ullanuvchilarining aksariyat testlarda uncha katta bo'lmasa ham tajriba guruhiga nisbatan ustunligi kuzatildi.

Dastlabki test natijalariga ko'ra nazorat guruhida tadqiqot guruhiga nisbatan ustunlik kuzatilgan bo'lsa-da, pedagogik tajriba yakunida imkoniyatlar

tahlili tajriba guruhi foydasiga o'zgardi. Boshlang'ich tayyorgarlik guruhi (tajriba) shug'ullanuvchilari bilan 2015 – 2016 o'quv yili davomida pedagogik tajriba rejasiga ko'ra futbol mashg'ulotlari maxsus dastur asosida tashkil etildi. Boshlang'ich tayyorgarlik guruhi (nazorat) shug'ullanuvchilari bilan an'anaviy dastur asosida futbol mashg'ulotlari tashkil etildi.

Jadval -7

**Boshlashg'ich tayyorgarlik guruhi jamoalarida o'tkazilgan yakuniy texnik test natijalarining qiyosiy tahlili**

Texnik test talablari	IBO'OZFM		
	Tajriba guruhi jamoasi (n = 9)	Nazorat guruhi jamoasi (n = 10)	Qiyosiy samaradorlik
1. 30 metrga to'p bilan yugurish (soniya)	7,97	9,08	> 1,11
2. To'pni belgilangan mo'ljalga aniq tepish (8 marta/imkoniyat)	7,2	4,3	> 3,9
3. Ustunlar orasidan to'pni olib yurish va darvozaga zarba (soniya)	10,1	12,0	> 1,9
4. 30 metrga to'pni aniq uzatish (5 marta /imkoniyat)	5	4	> 1
5. To'p bilan janglyorlik (daqqaq/marta)	42	34	> 8
6. 10 x 10 konvert usulida to'pni olib yugurish (soniya)	19,8	22,0	> 2,2

Tajriba yakunida BO’OZSM-3 shug’ullanuvchilarining tajriba guruhida ( $n=9$ ) qayd etilgan test natijalarida o’sish borligi aniqlandi. To’p bilan yugurish tezligi (30 metr)  $X = 7,97$  soniya, to’pni mo’ljalga aniq tepishda o’rtacha ko’rsatkich  $X = 7,2$  ta, ustunlar orasidan to’pni olib yurish va darvozaga zarba berish  $X = 10,1$  soniya, 30 metr masofaga to’pni aniq uzatish 5 imkoniyatdan  $X = 5$ , to’pni janglyorlik qilish  $X = 42$  ta,  $10 \times 10$  konvert usulida to’pni olib yugurish tezligi  $X = 19,8$  soniyani tashkil etdi (7-jadval).

Yosh futbolchilar bilan o’tkazilgan bir yillik mashg’ulot davomida tadbiq etilgan texnik – taktik maxsus mashqlar majmuasi va nazorat bosqichlari samaradorligi ana’naviy mashg’ulot metodikasiga nisbatan anchagina ustunligi tajribaviy yo’l bilan asoslandi.

### **III bob mavzusi bo'yicha xulosa**

13-14 yoshli futbolchilarning musobaqa faoliyati kuzatilganda, ular o’yin davomida o’rtacha 440-480 ta texnik-taktik harakatlarni bajarishlari aniqlandi. Yosh futbolchilar tomonidan bajarishgan texnik-taktik harakatlarini yarmidan ko’proq qismini turli to’p uzatishlar tashkil qilgan.

Kuzatishlardan ma’lum bo’ldiki, yosh futbolchilar raqibni aldab o’tish texnik harakatni, bosh bilan o’ynash texnik harakatni bajarishda ko’p marotaba nuqsonlarga yo’l qo’yadilar.

IBO’OZ sport maktabi va BO’SM internat tarbiyalanuvchilarining maydondagi texnik-taktik harakatlari natijalariga ko’ra (tajribadan oldin), raqibni aldab o’tishda 75% ga, bosh bilan o’yin ko’rsatish 65% ga samarsiz yakun topgan. Hattoki, himoyachilar ham aldash harakatlarini o’z jarima maydonlarida ko’p marotaba amalga oshirganligini ko’rish mumkin. Yon chiziqdandan to’p tashlashda ham asosan himoyachilar foydalanishganligi, boshqa chiziq futbolchilar kam hollarda yon chiziqdandan to’p tashlashgan.

Himoyachilar uzoq masofaga to’p uzatishlarni eng ko’p xatolar 38% bilan, to’pni olib qo’yish -40%, bosh bilan o’ynash 59%, aldab o’tishni 47% xato bilan bajarishda.

Yarim himoyachilar uzoq masofalarga uzatishlarni bajarish vaqtida xatolar foizining eng yuqori darajasi –37-38% ni tashkilettdi, aldab o’tish –44% bosh bilan o’ynash – 36-40%, darvozaga zarba berish – 47-51%ga teng bo’ldi.

Hujumchilarda esa uzoq masofaga to’p uzatishlar – 46-47% xatolar bilan ijro etildi, darvozaga zarba berish – 53-66%, to’pni olib qo’yish – 34-41% darajasida bo’ldi. To’pni olib yurish va aldab o’tish harakatlardan kamroq foydalanishdi. Dastlabki nazoratlarda qayd etilgan barcha texnik, taktik nazorat ko’rsatkichlar, yosh futbolchilarni o’yin davomida turli texnik usullarni aniq va tez bajara olmasliklarni ko’rsatdi.

### **III. BOB BO’YICHA UMUMIY XULOSA**

1. Maxsus adabiyotlar tahlili shuni ko’rsatdiki, boshlang’ich tayyorgarlik guruhida shug’ullanuvchi yosh futbolchilarning texnik-taktik tayyorgarlik darajalarini xususan tayyorgarlik va musobaqa davrlarida nazorat qilish, maxsus bayonnomalarda qayd etilgan ahamiyatli ko’rsatkichlarni tahlil qilish orqali yaratilgan xulosalar futbolchilarni tayyorlash jarayonida asosiy ahamiyatga ega. Individual yoki jamoaviy kuzatuv natijalariga asoslanib, futbolchilarning jismoniy, texnik, taktik, psixologik tayyorgarlik tomonlariga shubhasiz, pedagogik ta’sir etish imkonini bo’ladi.

2. Tadqiqot va nazorat guruhlari yosh futbolchilarining asosiy mashg’ulot va musobaqa faoliyatida dastlabki nazorat qilish orqali, ular tomonidan bajariladigan bir qancha texnik harakatlarni kuzatildi va olingan natijalar tahlil qilindi. IBO’OZ sport maktabi va BO’SM internat tasarrufidagi boshlang’ich tayyorgarlik guruhlarida maxsus tashkil etilgan kuzatuvlari shuni ko’rsatdiki, yosh futbolchilar ko’pincha katta jamoalarda qo’llaniladigan harakat tizimlari, jismoniy va texnik-taktik usullariga asossiz taqlid qilinishi oqibatida, shoshmashosharlik tez toliqish va ketma-ket xatolarga yo’l qo’yish holatlari kuzatildi.

3. Yosh futbolchilarning darvoza tomon zarba berish harakatlar natijaviyligi, rasmiy o'yin jarayonida qo'llanilgan texnik harakatlar samaradorligi (%) ni baholash orqali ahamiyatli ma'lumotlar qo'lga kiritildi (bosh bilan, oyoqda, jarima maydon ichida va tashqarisida). Maxsus tashkil etilgan pedagogik tajriba ma'lumotlariga ko'ra tadqiqot va nazorat guruqlarida tajribadan oldin va keyingi qiymatlar o'rtasida asosli farq mavjud. Nazorat guruhida taribadan keyin darvoza tomon berilgan zarbalarining samaradorlik koeffistienti 0,44 % ni tashkil etgan bo'lsa, tadqiqot guruhida 0,56 % ni ko'rsatdi.

4. Yosh futbolchilarda texnik-taktik tayyorgarlik faoliyatida hujumni tashkillashtirish samaradorligini o'rganishda ham ahamiyatli ma'lumotlar olindi. Rasmiy o'yin jarayonida tadqiqot va nazorat guruhi jamoalari tomonidan qanotlardan va markazdan tashkillashtirilgan hujumlar soni va texnik samaradorligi bo'yicha tadqiqot guruhi foydasiga guruhlar-aro asosli farq mavjudligi qayd etildi.

5. Pedagogik tajriba rejasiga muvofiq saralangan texnik test talablari bo'yicha yakuniy natijalar tahlili IBO'OZ sport mактабining boshlang'ich tayyorgarlik guruhi hisobiga qiyosiy samaradorlik aniqlandi.

6. Mashg'ulotlarda yosh futbolchilarga jismoniy rivojlanish, texnik-taktik mashqlar haqida atroficha nazariy ma'lumotlarni berib borish shuningdek sport inshootlari, sport kiyimlari, asbob uskunalari bilan tanishtirish va eng muhim musobaqalar o'tkazish, xakamlik qilish, doir amaliy maslahatlar berish muhim ahamiyatga ega.

## **AMALIY TAVSIYALAR**

### **Texnik harakatlarni rivojlantirishda**

#### **murabbiy ko'rsatmalar**

Yosh futbolchiga texnik usullarni o'zlashtirib olishni o'zigina kifoya emas, balki mashg'ulotlarda muntazam ravishda kamolotga etkazib borishga, eng oddiy usuldan asta-sekin jihatdan murakkabroq usullarga o'tib boraverish kerak.

Yosh futbolchilar butun o'yin davomida to'pni o'rtacha 3-5 minutgina olib yuradi, aksari bundan ham kamroq vaqt ketadi, u to'pni 20-25 tagacha, har xil darajada tepadi. Shunday ekan, futbolchi kundalik trenirovkalarda to'p uzatishning u yoki bu shaklini aniq ijro etish borasida ishlamasqa, yuqoridagi sharoitda u aniq to'p tepish hissidan mahrum bo'laveradi.

Darvozaga to'p tepishni ham boshqa mashqlardan qolishmaydigan ko'proq mashq qilinishi muhimdir. Mashg'ulotlarda darvozaga to'p urishda odatda, to'p jarima maydonidan, ya'ni 16-18 metrlardan tepiladi. Turli masofadan ketma-ket bir necha tup tepilar ekan, trener tepishning aniqligini ta'kidlash bilan birga, urinishlar orasida to'pning mo'ljaldan qanchalik chetlashganini ham nazarga oladi.

Yon chiziqdandan to'p tashlash ham o'yin davomida ko'p marotaba qo'llaniladigan usuldir. Aksariyat hollarda yosh futbolchilar yon chiziqdandan to'p tashlashda xatoliklarga yo'l qo'yishadi. To'pni yon chiziqdandan tashlashda bilim va mahorat lozim. Qoidaga ko'ra to'p tashlash mahalida sakrash yoki oyoqlarning joyini o'zgartirish mumkin emas.

Shunday qilib, yosh futbolchi o'yin texnikasining a'lo darajada bilishi bularga, to'pni olib yurish, tepe bilish, raqibni aldab o'tish, tez yugura oladigan bo'lishi lozim.

Futbolchilar mashg'ulotlarida mashqlarni o'rganar ekanlar, shuni unutmasliklari kerakki, hujum texnikasini puxta o'zlashtirib olish avvalo ko'p jihatdan shaxsiy tayyorgarlikka bog'liq; ikkinchidan hujumchilar gruppasi harakatining uyushqoqligi, ahilligi; uchinchidan, uyinchilarning o'yin sharoitida qovushib keta olishlariga bog'liq.

Hujumchilarning o'yinda darhol qovushib ketishi ularning raqib komandasining qanday himoya qo'llayotganini payqashlariga, uyushgan himoyamiyo'qmi, shuni ilg'ab olishlariga qarab belgilanadi.

Uyushgan himoyaning belgisi reakstiyaning tezligida, himoyadagi o'yinchilarning maydonning barcha joylarida yangicha turishida hamda darvozaga raqib osonlik bilan to'p urishi ehtimoli bo'lган joylarda turganidan ko'rindi. Himoyadagi o'yinchilar raqib xujumini kutib oluvchilar bo'lgani uchun ular yuz bergen xavfni bartaraf etishlari lozim.

Uyushmagan himoyani hujumchilar darhol sezishlari lozim, bu o'yinchilarning o'z maydonida sekin jilishi va joylashishida, hujumchilarni passiv qarshi olish hamda boshqa taktik xatolarda ko'rindi.

Hujum xarakterida bo'lган bir qancha harakatlarni ko'rib chiqamiz.

1. Hujumchining shaxsiy yo'li – bu o'yinchining tez, jadal siljishini ifodalaydi. Raqib darvozasiga to'pni iloji boricha yaqinlatish hamda zarba berish uchun hujumchi o'yinchilarning yugurishdagi ustunligidan foydalanishi kerak.

2. Agarda hujumchilar raqiblar komandasining himoyachi-larini darvoza yonidagi jarima maydoniga «qisib» qo'yan, darvoza tarafga zarba tepish imkoniyati qolmagan paytda to'pni ustalik bilan orqadagi, zarbasi kuchliroq bo'lган yarim himoyachi yoki himoyachilarga uzatadilar. Bunday uzoqdan (20-30 metr) tepilgan to'p bilan darvozani zabit etish mumkin.

3. Hujumdagagi kombinastiyalarning muvaffaqiyatli hal etilishi – komandaning barcha o'yinchilari oldidagi muhim vazifa hisoblanadi. Masalan, hujumchi tez yo'l ochib borsa-yu, to'pni mo'ljalga etkaza olmasa, lekin to'p birovga o'tmagan bo'lsa, to'pni bo'sh turgan o'yinchiga uzatish bilan maqsadga erishmoq mumkin.

4. Mabodo hujumchiga raqib darvozasini zabit etishning imkoni bo'lmasa, u to'psiz bo'la turib ham to'pni olgan o'yinchiga zarba uchun qulay sharoit yaratib bersa – bu ham xavfli holatni vujudga keltiradi.

5. Qarshi hujumga o'tish – bu jahon futbolida ko'proq ishlataladigan priyomlardan biri hisoblanadi. Buning ma'nosi – raqib komandasining hujumi

to'xtagan mahalda yuz bergen imkoniyatdan foydalanib, komanda o'yinchilari barobar sur'at

Futbolchilar mashg'ulotlarida mashqlarni o'rganar ekanlar, shuni unutmasliklari kerakki, hujum texnikasini puxta o'zlashtirib olish avvalo ko'p jihatdan shaxsiy tayyorgarlikka bog'liq; ikkinchidan hujumchilar gruppasi harakatining uyushqoqligi, ahilligi; uchinchidan, uyinchilarning o'yin sharoitida qovushib keta olishlariga bog'liq.

Hujumchilarning o'yinda darhol qovushib ketishi ularning raqib komandasining qanday himoya qo'llayotganini payqashlariga, uyushgan himoyamiyo'qmi, shuni ilg'ab olishlariga qarab belgilanadi.

Uyushgan himoyaning belgisi reakstiyaning tezligida, himoyadagi o'yinchilarning maydonning barcha joylarida yangicha turishida hamda darvozaga raqib osonlik bilan to'p urishi ehtimoli bo'lgan joylarda turganidan ko'rindi. Himoyadagi o'yinchilar raqib xujumini kutib oluvchilar bo'lgani uchun ular yuz bergen xavfni bartaraft etishlari lozim.

Uyushmagan himoyani hujumchilar darhol sezishlari lozim, bu o'yinchilarning o'z maydonida sekin jilishi va joylashishida, hujumchilarni passiv qarshi olish hamda boshqa taktik xatolarda ko'rindi.

### **Yosh futbolchilarning texnik-taktik harakatlarni tarbiyalashda maxsus o'yinlar**

Yosh futbolchilar mashg'ulotlarida qo'llaniladigan o'yinlar, mashg'ulot vazifalarni tezroq echishga va mashg'ulot usullaridan kelib chiqib shaklini o'zgartirishi va kengayishi mumkin.


Zamonaviy mashg'ulotlarni xarakatli o'yinlarsiz tasavvur etib bo'lmaydi. Bu vazifani ko'rsatilgan o'yin mashqlari yordamida ma'lum darajada hal etish mumkin.

#### **Xujum xududida to'pni aniq uzatish texnikasi**

**Ishtirokchilar:** to'rt nafardan o'yinchisi bo'lgan ikki jamoa.

**Maydoncha:** 30 x 20 m, qisqaroq chiziqlarga tashqari tomonga qaytarilib ikkita kichkina darvoza o'rnatiladi.

**Davomiyligi:** 5 daq dan oraliqlar bilan 5 martagacha.



**Shartlari:** bir jamoaning o'yinchilari to'pni o'z maydonchalari tomondan raqib tomoniga o'tkazib, raqib darvozasi chizig'idan narida turgan hujumchiga uzatishlari kerak (hujumchini raqiblarning himoyachisi nazorat qilib turadi). To'p yo'qotilsa, ular raqib jamoasiga beriladi. To'pni faqat maydonchaning raqibga tegishli qismidan uzatib darvozaga yo'llash mumkin. To'p yon chiziqlardan tashqariga chiqib ketmasligi kerak. To'pni o'z maydonchasidan to'g'ridan-to'g'ri hujumchiga uzatish va boshqa qoidabuzarliklar uchun erkin zarba bilan jazo beriladi.

Har 5 daqiqada maydon o'rtasidagi o'yinchilar darvozadan narida o'ynayotgan sheriklari bilan joy almashadilar.


Ko'rsatmalar: maydoncha o'rtasida o'ynayotgan ikkala o'yinchi darvozaga kiritilgan har bir to'pdan keyin almashtirib turish mumkin. O'yinchilarning ish qobiliyatidan kelib chiqib, maydoncha uzunligi, yuklama davomiyligi va to'pga necha marta teginish mumkinligi belgilanadi.

### Futbol maydoni burchagida ikkiga-ikki o'yini

**Ishtirokchilar:** to'rt nafardan o'yinchisi bo'lgan ikki jamoa.

**Maydoncha:** futbol maydoning  $15 \times 15\text{ m}$  o'lchamli burchagi.

**Davomiyligi:** bir daqiqa o'ynab, bir daqiqa dam olinadi.



**Shartlari:** raqiblarning ikkita darvoza chizig'i belgilanadi, bir ochko yutib olish uchun to'pni raqib darvozasi chizig'idan o'tkazish kerak. Ma'lum vaqt ichida ko'proq ochko to'plagan jamoa ikki nafardan futbolchi o'yndaydi, har daqiqa o'yinchilar almashtirib turiladi.


**Ko'rsatmalar:** o'yin va faol dam olish davomiyligi ikki daqiqaga uzaytiriladi, o'yin yaxshi texnik tayyorgarlik ko'rgan o'yinchilar uchun mo'ljallangan

### To'pni olib yurish o'yini

**Ishtirokchilar:** olti nafardan o'yinchisi bo'lgan ikki jamoa.

**Maydoncha:** jarima maydoni.

**Davomiyligi:**  $3 \times 2$  daq, ikki daqiqalik passiv dam olish bilan yuklama beriladi.



**Shartlari:** har bir jamoa ochkoga ega bo'lish uchun to'pni raqib darvozasi chizig'idan o'tkazishi kerak. Ma'lum vaqt mobaynida ko'proq miqdorda ochko to'plagan jamoa g'olib hisoblanadi.

Bir vaqtning o'zida har bir jamoadan o'ntadan futbolchi o'yin olib boradi, har ikki daqiqada ular almashinib turadilar. Jamoalardan biri o'yin boshlab, raqib darvozasi chizig'iga hujum qiladi. O'yinchilar to'pni qabul qilib, uni raqib darvozasi chizig'idan o'tkazishga imkon beradigan vaziyatlarni egallab olishga ham intiladilar. "O'yindan tashqari holat" bo'lmaydi.


**Ko'rsatmalar:** O'yin davomiyligi uch daqiqa gacha uzayti-riladi. Tanaffusda qisqa dam olish.

### To'pni xavoda o'ynatish o'yini

**Ishtirokchilar:** sakkiz nafar o'yinchi – 3 ga qarshi 5.

**Maydoncha:** 30 x 30 m.

**Davomiyligi:** oraliqlar bilan 5-6 daq.



**Shartlari:** Har bir jamoa to'pni imkon qadar ko'proq tutib turishga harakat qiladi. To'pga egalik qilib turgan har bir daqiqasi jamoaga ochko beriladi. Ma'lum vaqt orasida ko'proq miqdorda ochko to'plangan jamoa g'olib hisoblanadi.

To'pga egalik qilib turgan jamoa uni uzatishlarni amalga oshiradi, raqiblar to'pni olib qo'yishga harakat qiladilar. Besh o'yinchili jamoaga muayyan shart, masalan, to'pgp faqat bir martadan tepinib o'ynash belgilanadi, uch o'yinchili jamoaga hech qanday cheklashlar qo'yilmaydi. SHartlardan kelib chiqib, ochko olgan jamoa yo o'yinni davom ettiradi, yo to'pni raqibga beradi.


**Ko'rsatmalar:** besh o'yinchili jamoaga faqat pastda, faqat yuqorida, faqat chap yoki o'ng oyoq bilan o'ynashga ruxsat etiladi (har 5 daqiqadan keyin bu jamoani tashkil etib o'ynaydi).

### Jamoa bo'lib to'pni bir tepish o'yini

**Ishtirokchilar:** 3-6 nafardan o'yinchisi bo'lgan ikki jamoa.

**Maydoncha:** futbol maydonining yarmi o'rta chiziq bilan ikki qismga bo'lingan, ikkita kichkina darvoza o'rnatilgan.

**Davomiyligi:** 3 daqiqagacha.



**Ko'rsatmalar:** o'yin va faol dam olish davomiyligi ikki daqiqaga uzaytiriladi, o'yin yaxshi texnik tayyorgarlik ko'rgan o'yinchilar uchun mo'ljallangan.

**Shartlari:** hujum qilayotgan jamoaning barcha o'yinchilari darvozaga yo'naltirilgan to'p hisobga olinishi uchun raqib tomoniga o'tib olishlari kerak. Agar darvozaga zarba berilganda hamma o'yinchilar o'rta chiziqni kesib o'tmagan bo'lsa, shuningdek, raqib to'pni olib qo'ya bilsa, to'p autga ketsa, burchak zarbasi urilsa yoki o'yin qoidasi buzilsa, raqib to'p oladi. Har bir jamoa-ning o'yinchisiga darvoza oldida qo'llar bilan o'ynashga ruxsat etiladi. "O'yinchidan tashqari" holat yo'q.

## **Фойдаланилган адабиётлар**

1. И. Каримов. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Т.; “Маънавият”, 2008, 61-62 б.
2. Ўзбекистон республикаси Президентининг 2006 йил 1 майдаги “Ўзбекистонда футболни ривожлантиришга доир қўшимча чора тадбирлари тўғрисида” ПҚ-338-қарори.
3. Ўзбекистон республикаси вазирлар маҳкамасининг 2012 йил 1 июндаги “Ўзбекистонда футболни ривожлантиришни қўллаб қувватлаш масалалари тўғрисида”ги ПҚ-338-сон қарори.
3. Каримов И.А. Баркамол авлод Ўзбекистон тараққиёти пойдевори. –Т.: Ўзбекистон, 1997
4. Айрапетьянц Л.Р., Годик М.А. Спортивные игры. Т., изд. Ибн Сино, 1991.
5. Акрамов Р.А. Игровые и тренировочные нагрузки в футболе. Учебное пособие. -Т., изд. Ибн Сино, 2002.
6. Акрамов Р.А. Ёш футболчиларни танлаб олиш ва тайёрлаш. - Т., изд. Медистина, 1989.
7. Абидов Ш.У. Ёш футболчиларнининг ўқув-мағулот жараёнини ташкил қилиш ва режалаштириш. Услубий тавсиянома . Тошкент.2011.
8. Алиев М.Б. Распределение нагрузок различной направленности в учебном-тренировочном простесеи юных футболистов на основе комплексного контроле // Фан-спорга №4 -2006 г.

9. Акрамов Ж.А Абидов Ш.У. Ёш футболчиларнинг мусобақа фаолиятнинг хусусиятлари. // Фан-спортга №1 -2007 й.
10. Арестов Ю.М., Годик М.А., Шамардин А.И. Эффективность и надежность технико-тактических действий вратарей в условиях соревнований. Ежегодник «Футбол», 1981 г.
11. Базилевич О.П., Гаджиев Г.М. Моделирование соревновательной деятельности команд на основе количественных показателей коллективных действий в игре.// Ежегодник «Футбол», 1981.
12. Бриль М.С. Отбор в спортивных играх. –М.: ФИС 1980
13. Волков Л.В. Теория и методика детского и юношеского спорта. К., Олимпийская литература, 2002.
14. Голомазов СВ., Чирва Б.Г. Теорические основы и методика контроля технического мастерства. Теория и практика футбола. - М.: Спорт Академия Прес, 2000.
15. Годик М.А. Контроль тренировочных и соревновательных нагрузок. - М., ФиС, 1980. стр. 34.
16. Годик М.А. Комплексный контроль. Юный футболист. - М., ФиС, 1983. стр. 100.
17. Годик М.А., Омар Сайд, Папаев В.Е., Кузмичев Д.В. Решение тактических задач – контроль и оценка. // Ежегодник «Футбол», 1985.
18. Годик М.А. Двигательная активность футболистов в условиях соревновательной деятельности. // Фан спортга №3, 2005.

19. Гриндлер К., Пальке Х., Хемо Х. Технический подготовка футболистов. Перевод с нем. –М.:ФИС 1976.
20. Джармен Д.К. Футбол для юных. Перевод с анг.-М.ФИС 1982.
21. Зайстев А.А. Динамика физической и технической подготовленности юных футболистов 11-12 лет различных соматических типов и вариантов развития. Автореф. дис. к.п.н. -М., 1994.
22. Зонин Г.С. Исследование физической, технической подготовленности и их совершенствование у футболистов. Автореф. канд. дис. на соиск. учен. степ. канд. пед. наук. -М., 1974.
23. Зеленстов А.М., Лобановский В.В. Моделирование тренировки в футболе. - К., Здоровя, 1983.
24. Исеев Ш.Т. Футбол жамоаларнинг ғалаба қозонишида техник тактик харакатлари. “Педагогик таълим” Ж.№ 2. 2003.
25. Исеев Ш.Т. Анализ атакующих действий футболистов высокой квалификации. Фан-спортга №1.2004.
26. Корнеев А.С. Педагогический контроль спортивной деятельности на основе показателя равновесия. Автореф. канд. дис. на соиск. учен. степ. канд. пед. наук. -М., 1980.
27. Кошбахтиев И.А. Эффективность атакующих действий в современном футболе. В кн.: «Некоторые вопросы физического воспитания и развития спорта среди школьников и молодежи». Т., 1975.

28. Курбанов З.А. Организация учебно-тренировочного пространства футболистов в условиях Узбекистана. Учебное пособие. Т., 2000.
29. Курбонов О.А. Совершенствование ударов по мячу головой юных футболистов. // Фан спортга №4. 2006.
30. Качалин Г.Д. Тактика футбола. -М.: ФИС, 1986.
31. Климин В.П. Старт и содержание индивидуальной тренировки футболистов // «Футбол», ежегодник. -М., 1984.
32. Лисенчук Г.А. Управление подготовки футболистов. К., изд. Олимпийская литература, 2003.
33. Лисенчук Г.А., Дагадайло В.Ч. Отбор и прогнозирование достижения как инструмент управления соревновательной деятельностью в футболе // Наука в Олимпийском спорте. К., 1997.
34. Люкшинов Н.М. Состояние и тенденции развития современного футбола // «Футбол», ежегодник. -М., 1981.
35. Лопачев Ю.Н. Келинг түп тепамиз. -Т.: Медицина 1988.
36. Лобановский В.В., Морозов Ю.А. Характеристика игровых действий южно-американских команд. «Футбол» сб. статей.-М.: 1979.
37. Лясковский К.П. Техника ударов. -М.: Физкультура и спорт. 1977
38. Миллян М.М. Современный футбол. // Футбол. Ежегодник. -М.: 1980

39. Морозов Ю.А. Метод регистрации технических приемов футболистов во время игры. В кн.: «Материалы научно-методической конференции вузов Ленинграда по физическому воспитанию». -Л., 1976.
40. Морозов Ю.А. Перед игровая разминка как фактор формирования готовности футболистов к игре. Автореф. канд. дис. на соиск. учен. степ. канд. пед. наук. -Л., 1968.
41. Морозов Ю.А. Анализ технико-тактических действий лучших команд чемпионата мира 1974 года. В кн.: «Подготовка футболистов». М., 1978.
42. Нуримов Р.И. Совершенствование учебно-тренировочного процесса футболистов.- Т., 2001.
43. Нуримов Р.И. Совершенствование тактических действий футболистов высокой квалификации.- Т., 2000.
44. Нуримов Р.И. Ёш футболчиларни техник-тактик тайёрлаш. Ўқув қўлланма.-Т.: 2005.
45. Нуримов. Р.И. Турли тоифадаги футболчилар мусобақа фаолияти тузилишнинг ташхисли таҳлили// Фан спортга №1. 2004.
46. Пагиев В.Б. Исследование взаимосвязи уровня физической подготовленности и технического, тактического мастерства футболистов высших разрядов. Автореф. канд. дис. на соиск. учен. степ. канд. пед. наук. - М., 1977.

47. Полишкис М.С. Показатели коллективных и индивидуальных технико-тактических действий как критерии оценки качества игры футболистов. // Ежегодник «Футбол», 1980.
49. Рымашевский Г.А. Факторы надежности выполнения технико-тактических действий футболистами высокой квалификации. Ежегодник «Футбол», 1980.
50. Сергеев Г.М. Экспериментальное обоснование планирования подготовки юных футболистов в условиях жаркого климата. Автореф. канд. дис. на соиск. учен. степ. канд. пед. наук. -М., 1977.
51. Скоморохов Е.В. Комплексный контроль и методы совершенствования специальной подготовленности высококвалифицированных футболистов. Автореф. канд. дис. на соиск. учен. степ. канд. пед. наук. Малаховка, 1980.
52. Скоморохов Е.В., Голденко Г.А. Факторная структура технико-тактической деятельности команд среднеевропейской зоны. //Ежегодник «Футбол», 1984.
53. Савин С.А. Футболист в игре и тренировке. М., ФиС, 1975.
54. Смиронов Г.А., Кириллов А.А., Полишкис М.С., Сачасти Р.Р. Специальная подготовка футболистов. Методические рекомендации. -М., 1981.
55. Сушков М. Об ударах по воротам. В кн.: футбол сегодня и завтра.- М., ФиС, 1960.

56. Сучилин А.А., Лапатев А.Н., О совершенствовании системы подготовки футбольного резерва // Теория и практика физ. Кул. -1984.
57. Симаков В.И. Футбол. Простые комбинации.-М.: ФИС,1987.
58. Талипджанов А.И. Оперативный контроль и планирование подготовки футболистов высокой квалификации. Автореф. канд. дис. на соиск. учен. степ. канд. пед. наук.-М., 1983.
59. Талипджанов А.И. Современная система подготовки высококвалифицированных футболистов. Учебное пособие. – Т. 2011.
60. Футбол. Учебник для институтов физической культуры. Под ред. Н.П. Казакова. М., ФиС , 1978 г.
61. Хеддергот К.Х – Новая футбольная школа. Пер. с нем. -М., ФиС 1976 г.
62. Хьюс Ч. – Футбол: тактические действие команды. Пер с анг. -М ., ФиС., 1979 г.
63. Чанади А. – Футбол. Техника. Пер. с венг. -М., ФиС., 1978 г.
64. Чулибаев Д.В. Тренировочные микроструктуры скоростно-силовой направленности в подготовке юных футболистов. Автореф. Дис. К.п.н., -М., 1987.
65. Шамардин В.Н. Исследование физических нагрузок юных футболистов в годичном цикле тренировки. Автореф. 1978.
66. Шарфи Р. Индивидуальная направленность физической подготовки юных футболистов 13-14 лет. Автореф. Дис. к.п.н.,-К 1983 .

67. Шперлинг К.А. О методах и организации отбора и комплектования юных футболистов (10-12 лет). Методические рекомендации. -М., 1975.
68. Шамардин А.И. Содержание технико-тактических действий вратаря в условиях игры и тренировки. Ежегодник «Футбол», -М.: 1984.
69. Штуденер Х., Вольф В.Д. Тренировка футболистов. -М., ФиС., 1970
70. Юнусова Ю.М. Теоретические основы физической культуры и спорта. -Т., 2005.
71. Asmus S koordinative Farigkeitin - die Basis tur fusalle. Teil /Fussball training 1997 y.
72. Morek J. Roznor cinnosti Realirachych Tim Vo footballe //TrenerRrahe- 1984 y.
73. Arnot R., Gaynes S. Tratado de la aktividad fisika. Selikione su deporte.- Barselona: Paidotribo, 1992
74. Learmouth J. Soccer fundamentals Basic Techniques and Training for Beginning Players / J. Learmouth. - New York : St.Martin`s Press, 1989.

